جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 18-oktyabr
№ 43(43)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

MAXTUMQULI – BASHARIYAT SHOIRI



Maxtumqulidan qolgan meros qiymati shundaki, adabiy-nazariy tomondan juda ko‘p masalalarga, jumboqlarga yechim bera oladi. She’rning hikmatona tabiati, shakli, ohangi va inson qalbiga yo‘l topishi kabi xususiyatlar – bular Maxtumqulidan qolgan badiiy merosda jamuljamdir.

(3-sahifada o‘qing).

XALQARO KONFERENSIYA



Joriy yilning 15-oktyabr kuni poytaxtimizda “Islom – ezgulik va tinchlik dini” mavzusidagi nufuzli xalqaro anjuman boshlandi. Tadbirda Saudiya Arabistoni, Misr, Turkiya, Iordaniya, Ummon, Rossiya, AQSh, Fransiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Hindiston va Pokiston kabi dunyoning 22 mamlakatidan 70 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilot rahbarlari, din arboblari, muftiylar va taniqli ulamolar ishtirok etmoqda.

Ma’lumot o‘rnida: mazkur anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida O‘zbekistonda “Islom – tinchlik va ezgulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusi doirasida tashkil etildi.

Tadbir avvalida Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov davlatimiz rahbarining xalqaro anjuman ishtirokchilariga tabrigini o‘qib eshittirdi. Unda xalqaro konferensiya qatnashchilari qutlanib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi tashabbus qo‘llab-quvvatlangani, so‘nggi 7 yilda yurtimizda diniy-ma’rifiy sohada ulkan islohotlar olib borilgani, xalqaro ilmiy markazlar tashkil qilingani, ko‘plab allomalarimizning kitoblari nashr etilgani qayd etilgan.

Anjumanda so‘zga chiqqan xorijiy mehmonlar muqaddas Islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy ma’ruzalar qilishdi. Misr Arab Respublikasi Muftiysi, Butun dunyo fatvo kengashlari va idoralari bosh kotibiyat rahbari, doktor Nazir Muhammad Ayyadning anjumanda bildirgan fikrlari ko‘pchilikda katta qiziqish uyg‘otdi.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA ISLOM:

MO‘TADILLIK VA BAG‘RIKENGLIK

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan...

Alloh taologa hamd-u sanolar bo‘lsin, ustozimiz, Rasulullo, u zotga, uning oilasi va sahobalariga salovat va salomlar bo‘lsin.

Assalomu alaykum va rohmatullohi va barokatuh.

So‘zimning avvalida O‘zbekiston musulmonlari idorasiga ushbu anjumanga taklif qilgani uchun chin dildan samimiy minnatdorlik va tashakkurlarimni bildiraman.

Aziz mehmonlar!

Bugun biz islomning tinchlik va ezgulik tushunchalari haqida fikr yuritish maqsadida yig‘ildik. Islom Qur’on va sunnat orqali nazariy jihatdan va payg‘ambarning muborak siyrati orqali amaliy jihatdan tinchlik va yaxshilikka chaqiradi.

Men ushbu konferensiyada “Globallashuv jarayonida Islom: mo‘tadillik va bag‘rikenglik” mavzusida fikr bildirmoqchiman. Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib, islomning to‘g‘ri yondashuvini aniqlash zarur. Globallashuv jarayoni bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda o‘zining achchiq mevalarini bermoqda.

(Davomi 2-sahifada).

21-OKTYABR — O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

MILLIY TAFAKKUR USTUNI

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori Nizomiddin MAHMUDOV bilan suhbat



– Assalomu alaykum, domla. Avvalo, qimmatli vaqtingizni ayamaganingiz uchun minnatdorlik bildiramiz. Mana, yaqinda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga o‘ttiz besh yil to‘ladi. O‘tgan davr mobaynida tilshunoslik sohasida juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. Lekin oxirgi paytlar, yoshlarimiz orasida tilimizga muhabbat pasayganday tuyuladi. Ayting-chi, ona tilimizga nopisand qarash bizda qachondan, qanday shakllandi?

– Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, bugungi kunda kurrayi zaminda uch mingdan ortiq til mavjud. Yana boshqa ma’lumotga ko‘ra, xususan, 2010-yilda “National Geographic” jamiyati tomonidan tashkil qilingan ekspedisiya aniqlagan Hindistondagi koro tili dunyo tilshunosligida qayd etilgan 6909-tildir. Tabiiyki, bu tillarning har biri muayyan bir qavm uchun e’zozli ona tilidir, ularning har biri o‘zining sobit sohibiga ega ekanligi shubhasiz. Zotan, o‘zini, o‘zligini, keragu nokeragini qo‘rishni uddalay olmagan qo‘rqoq qavmning ona tili o‘zi bilan birga tarix qa’rida yo‘qlikka mahkum bo‘lganki, bu tillar endilikda dangaliga “o‘lik tillar” nomini olgan. Uzun huzur bilan ta’kidlamoq joizki, o‘sha yetti mingga yaqin tillardan biri bo‘lmish o‘zbek tili talotumli tarixning totli-taxir qa’rida turli tillarning tazyiq-u tahqirlaridan qaddi xam bo‘lsa ham, adoqsiz imkoniyatlari bois olam ahlining aqlini shoshirgan benazir so‘z durdonalarining dunyoga kelishi uchun ulug‘ alloma-yu adiblar qo‘liga qalam tutqazdi. Yetti yot begona tillarning injiq istibdodi iskanjasida ingrasa-da, shu qodir qalam bois tilimiz o‘z tabiatiga aslo zaxa yedirmadi, o‘zining ming yillik mantig‘iga munkir kelmadi... Eng muhimi, tilimiz dono ajdodlarimiz yo‘rgaklagan benazir tajriba-yu qadri baland qadriyatlarimizni, bebaho ma’naviy-ma’rifiy boyliklarimizni o‘lmas meros o‘laroq bizga yetkazib keldi, necha-necha avlodlarni bir-biri bilan zamonlararo bog‘lovchi qo‘porilmas ko‘prik vazifasini iddaosiz bajardi...

(Davomi 2-3-sahifalarda).

MILLAT QAYG‘USI

Yosh avlodning qadriyatlarga sodiq, milliy g‘ururli bo‘lishida o‘zbek millati tarixi, tili, imlosi, urf-odatlari haqida bilim beruvchi fanlarning ahamiyati katta. Shu ma’noda alifbo, imlo bo‘yicha darslar va darsliklar o‘quvchilarga milliy o‘ziga xosligimizni singdirishga yordam beradi. Buni to‘g‘ri anglagan jadidlar XX asrning boshidanoq Turkistonda to‘qqiz oylik maktablarni tashkil etgan.



JADIDLIK HARAKATIDA TIL MASALALARI

O‘sha davrdagi ilm-fan darajasi, milliy pedagogikaning saviyasiga mos tarzda yaratilgan ona tili darsliklari, xususan, alifbe kitobi, albatta, bugungi ona tili darsliklaridan farq qilgan. Bu davr darsliklari milliy pedagogikamizning dastlabki shakllari sifatida nechog‘lik ahamiyatga molik bo‘lmasin, baribir, o‘sha davr darajasida, saviyasida edi.

XIX asrning 50-yillaridan boshlab ma’naviy uyg‘onish sari yuz tutgan turkiy xalqlar millat ko‘zgusi, taraqqiyot omili bo‘lgan til masalasiga jiddiy e’tibor berdi. Matbuotning yuzaga kelishi, nashr ishlarining shakllanishi, maktab va maorifga e’tiborning ortishi natijasida imlo masalasi birinchi o‘ringa chiqdi. Ma’rifatparvarlarning dunyoviy ilm-fan va madaniyat sari intilishi tilni ilmiy asosda o‘rganishni dolzarb masala qilib qo‘ydi.

Turkistonda Fitrat boshchiligidagi ma’rifatparvar shaxslar ilk bor o‘zbek tilini ilmiy o‘rganishga kirishdi. Ular milliy til qoidalari arab yoki rus tili grammatikalari asosida emas, balki milliy tilning ichki tabiatidan kelib chiqib yaratilishi kerakligini anglaganlari sababli ham tilni tarixiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari va hududlarga xos sheva materiallari asosida o‘rgana boshladilar. Natijada XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining dastlabki nazariy asoslari yaratildi.

O‘sha davrga kelib fan va madaniyat o‘chog‘iga aylangan Istanbul, Qozon, Qrim, Boku shaharlarida turk tilini tadqiq etuvchi tilshunos olimlar guruhi shakllandi.

Ular alifbo hamda imlo muammolarini o‘rganib, turkiy tillarning grammatikasini tuzishga kirishdi.

(Davomi 7-sahifada).

BARHAYOT SIYMO

OZODLIKKA O‘RNATILGAN HAYKAL



Biz buyuk shoir-u adiblarni yetishtirgan, jahon estetik tafakkuri takomilida alohida o‘rin tutuvchi adabiyoti bor millatmiz. Adabiyoti taraqqiy etgan xalq jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarida ham yuksalmog‘i ayon. Ana shu buyuk adabiyotning benazir vakili, jadidlik harakati namoyandasi, milliy ozodlik uchun kurashga jon-u jahonini bag‘ishlagan ulug‘ ma’rifatparvar shoir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodi bugun haqqoniy baholanayotgani ham yuqoridagi fikrlarimizning amaldagi tasdig‘idir.

(Davomi 4-sahifada).

FIKR, MULOHAZA, TAKLIF



TOMOSHABIN TEATRGA NIMA UCHUN BORADI?

So‘nggi o‘n yillikda yurtimizning barcha jabhalarida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, teatr namoyandalariga, tanqidga munosabat, teatrlardagi ichki vaziyatlar ham o‘zgarishga yuz tutdi. Teatrlar mafkuradan xoli bo‘ldi, taqiqlar yo‘q, ijodiy xodimlarga erkinlik berildi, pyesalar tanlash va sahnaviy ifodalikni belgilashda erkinlik vujudga keldi.

Biroq vaqt o‘tib ma’lum bo‘ldiki, uzoq yillar davomida qaysi muallifning asarlari qo‘yilishi kerakligi belgilangan repertuar asosida ishlab kelgan teatrlarning hammasi ham bunday yangiliklarga tayyor emas ekan. Chunki ijodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan aksariyat teatrlarning rahbariyati tanqidchilarni “dushman” sifatida ko‘rib, ularning fikrlariga bepisand munosabatda bo‘la boshladi.

Keyingi paytda tez-tez quloqqa chalinayotgan “Teatr tanqidchilari, ularning fikrlari, tanqidiy mulohazalari nega kerak?” degan savol javobsiz qolmoqda. Sababi, bugun teatrlar pul ishlashi, kassabop mahsulot ishlab chiqarishi kerak. Vaholanki, bu spektakllarning aksariyatining umri bir kunlik (yo bir pullik) mikan? Ba’zi tomoshabinlarga esa baribir, sahnaga nima chiqsa ko‘raverishadi (buyam bir ko‘rgilik). Xo‘sh, teatrga bundan boshqa yana nima kerak? Bunday munosabatdan ko‘ngilda g‘ashlik tug‘iladi. Teatrga professional tanqidni qanday qaytarish mumkin? Muayyan spektaklning zaif tomonlarini ko‘ra-bila turib, maqtov so‘zlarni aytishga vijdon yo‘l qo‘ymaydi. Unda teatrlar ishini faollashtirishning qanday yo‘li bor?

(Davomi 8-sahifada).

GLOBALLASHUV JARAYONIDA ISLOM:

MO‘TADILLIK VA BAG‘RIKENGLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Shubhasiz, “globallashuv”ning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud, lekin ta’kidlashimiz kerakki, uning ijobiy tomonlaridan salbiy jihatlari ko‘proqdir. Diniy muassasalarning bu jarayondagi ijobiy va salbiy tomonlarni bayon etib borishdagi faolligi muhim ahamiyatga ega. Globallashuv, aslida, g‘arbiy va yevropalik kuchlarning o‘z siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ideologiyalarini majburiy ravishda o‘rnatadigan yangi global tizim yaratishini anglatadi, bu kuchlar aloqa va bilim sohasidagi inqiloblar bilan kuchaygan.

Bugun men “globallashuv” tushunchasi va uning xavfli oqibatlarini muhokama qilmoqchi emasman. Istardimki, doimiy yig‘ilishlarimiz musulmon jamiyatlarini haqiqiy taraqqiyot va uyg‘onishga yo‘naltirish uchun samarali boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qilsa. Bu, mening fikrimcha, faqat to‘liq mustaqil, insonparvar bilimlarni egallash orqali amalga oshiriladi. Ularning tuzilishi islomning asosiy prinsiplariga to‘g‘ri kelishi sharti bilan tarix va madaniyatni o‘z ichiga olishi lozim. Diniy muassasalarning burchi bugun musulmon jamiyatlarini rag‘batlantirish va mazkur yo‘nalishda yangilanishga erishishdir. Ular haqiqiy uyg‘onishga hissa qo‘shadigan, to‘g‘ri diniy nutqni yangilashga intilishlari darkor. Bu yangilanish to‘liq va birlashgan bo‘lishi shart hamda islohot yo‘nalishidagi global, insoniy, ilmiy va ijtimoiy maqsadga yo‘nalmog‘i zarur.

Shuningdek, diniy muassasalar oldida tamaddunlararo muloqot bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar va madaniyat arboblarini qo‘llab-quvvatlash vazifasi ham turibdi. Ular sivilizatsiyalar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro tushunishni osonlashtirishda eng muhim bog‘lanishlardan biridir. Ushbu tadqiqotchilarning asosiy maqsadi, jamiyatlarni umumiy g‘oyalar va prinsiplar bo‘yicha kelishuvga tayyorlash uchun nazariyalarni mustahkamlash kerak, bu esa turli madaniyatlarga ega jamiyatni to‘liq nizosiz va to‘qnashuvlarsiz yaratishga yordam beradi.

Aziz mehmonlar!

Shaxsiyatni saqlab qolish “globallashuv”ning eng katta muammolaridan biridir. Chunki globallashuv diniy, etnik yoki tilga oid jamiyatlarning kimligini hisobga olmaydi va o‘zining turli ideologiyalarini majburiy ravishda o‘rnatishga harakat qiladi. Ko‘plab g‘arbiy olimlarning katta xatosi shundaki, ular “tamaddunlar to‘qnashuvi” ideologiyasini ishlab chiqib, uni millatlar va xalqlar ustidan globallashuvni o‘rnatish zaruriyati sifatida ko‘rishdi. Shunday qilib, globallashuv tushunchasini nazariyadan amaliy hayotga o‘tkazishga intildilar, bu orqali g‘arb ko‘plab xalqlar va millatlar ustidan o‘z madaniyatini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi.

Shu o‘rinda ta’kidlaymizki, shaxsiyatlarni saqlash urushlar yoki ideologik to‘qnashuvlarni chaqirmaydi. Bir-biridan farqli shaxsiyatlar, madaniyatlar tinch va xavfsiz bir jamiyatda yashashi mumkin. Qur’oni Karimda: *“Biz sizlarni xalqlar va qabilalar qilib yaratdik, bir-biringizni tanib olishingiz uchun”* [Hujurat: 13] deyiladi. Bu oyatga ko‘ra, Islom farqlilik va xilma-xillikni to‘qnashuv va mojaro sababi sifatida ko‘rmaydi. Menimcha, bu oyat zamirida tanishuv so‘zining oddiy ma’nosi emas, balki haqiqiy hamkorlik, totuvlik, hamjihatlik va bilim, madaniyat va tajribalarni almashish maqsad qilingan. Bularning barchasi yer yuzini rivojlantirish va insoniyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish uchun zarurdir. Bizning asosiy maqsadimiz, g‘arbiy olimlar nazardan qochirgan eng katta xatoni ko‘rsatishdan iborat:

Birinchidan, dinlarning madaniyatlararo totuvligini kuchaytirishga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatni, zamonaviy ilmiy hamda texnologik yutuqlardan tinchlik va yaxshilik tarqatishda foydalanishni rag‘batlantirish zarur.

Ikkinchidan, Islom ummati boshqa xalqlar va millatlar bilan ikkilanishsiz, qo‘rquvsiz madaniy tanishuvga, tushunishga o‘tishi zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan birgalikda ma’rifiy va madaniy qobiqdan chiqib, dunyoda o‘z markaziy rolini jang va urushlarsiz qayta tiklashni istaydi. Biz o‘zimizga savol beramiz: qachongacha zamonaviy ilmiy kashfiyotlarni qo‘rquv bilan kutamiz va so‘ngra ularni tahlil qilish uchun yig‘ilamiz? Biz ushbu holatdan o‘tib, innovatsiya va ilmiy haqiqatlarni kashf etishda faol va bevosita hamkorlik qilish zarurligini tushunishimiz kerak.



Nazir MUHAMMAD AYYAD,
Misr Arab Respublikasi Muftiysi,
Butun dunyo fatvo kengashlari va idoralari bosh kotibiyat rahbari

Aziz mehmonlar!

Bugungi kunda dunyo tajribaviy va tabiiy ilm-fan taraqqiyotida bizning rolimiz qayerda? Qachon ilmni faqat yuzaki o‘rganishdan chuqur falsafiy tadqiqotlarga o‘tamiz? Zero, bugungi kunda ilm falsafasi zarur va muhimdir.

Men ko‘plab zamonaviy islomiy tadqiqotlarga va ilmiy bo‘limlarimizga achinish va g‘amgin nigoh ila qarayman. Chunki ular hali ham an’anaviy va takroriy fikrlarni o‘rganmoqda. Haqiqatdan ajralgan va ilmiy metodologiyadan mahrum ko‘plab tadqiqotchilar o‘z ilm va bilimini ahamiyati yo‘q g‘oyalarni o‘rganishga sarflamoqda. O‘z navbatida boshqa mamlakatlar bunday masalalarni yengib o‘tib, innovatsiya va kashfiyotda yetakchiga aylandi. Haqiqat shuni ko‘rsatadiki, kuch irodasi bilim irodasiga bog‘liqdir.

Aziz yig‘ilish a’zolari!

Madaniyatlararo aloqalar aslida Islomning chaqiruvidir va bu “globallashuv” tushunchasi bilan cheklanmaydi. Lekin ular o‘rtasidagi farq shundaki, “globalizatsiya” noma’lum g‘arbiy kuchlar tomonidan majburan o‘rnatiladi va jamiyatlar hamda madaniyatlarning shaxsiyligini buzadi. Shuningdek, oddiy instinktlarga qarshi keluvchi g‘oya va amallarni qabul qiladi. Islomda esa aksincha. Qur’onda *“Dinda hech bir majburlik yo‘q”* [Baqara surasi: 256] deyilgani buning dalilidir. Islom boshqa xalqlarning madaniyatlarini yo‘q qilish yoki ularni chetga surish maqsadida emas, balki xilma-xillik va birgalikda tinch yashash sharoitida huquqlarni saqlab, majburiyatlarni hisobga olgan holda ularni himoya qilish uchun mavjuddir. Tarixiy haqiqat ham bu fikrni tasdiqlaydi. Ibn Battuta, al-Istaxri va Ibn Havqal kabi sayohatchilar qoldirgan manbalarni o‘rganish bu jihatlarni aniq ko‘rsatadi.

Agar bu aniq bo‘lsa, “globallashuv” – madaniyat va fikrning umuminsoniy tamaddunda yangi narsa emasligini anglaymiz. U kommunikatsiya inqilobi yoki kapitalning kengayishi bilan yuzaga kelmagan. Balki tarixiy jarayon sifatida mavjuddir. Madaniyatlar o‘rtasida aloqalar, yangi madaniyatlarning kashf etilishi yoki bir madaniyatning boshqa bir mamlakatga ko‘chishi va o‘zini joylashtirish harakatlari bu jarayonning asosiy ko‘rinishlaridir. Madaniyat turli tarkibiy qismlardan iborat: din, san’at, ilm-fan, texnologiya, urf-odatlar, g‘oyalar almashinuvi va tajribalarni baham ko‘rish. Shuning uchun “globallashuv” to‘g‘risida to‘xtalish nafaqat hozir yoki kelajak, balki o‘tgan vaqt haqida gapirish hamdir.

Hurmatli janoblar!

Radikal guruhlar bugungi musulmon olamida jiddiy va xatarli rol o‘ynadi. Ular ummatning katta vaqtini o‘g‘irlab, uning madaniy va iqtisodiy taraqqiyotini to‘xtatishga urinishdi. Shuningdek, jamiyatlar tinchligini buzishga va ummatning mehnat bilan qurilgan inshootlarini yo‘q qilishga harakat qildi. Buning oldini olish uchun bizdan ularga qarshi kurashish va ularning asossiz da’volarini oshkor qilish yo‘lida katta sa’y-harakatlar talab qilinadi.

“Misr ijtimoiy ustozlik markazi” sifatida biz davlat tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanib, tinchlik va yaxshilik yo‘lida faol hamkorlik qilishga intilmoqdamiz. Biz muloqot va hamkorlik masalalarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz va ushbu muhim konferensiyadan kelib chiqadigan har qanday tashabbusni tasdiqlaymiz.

E’tiboringiz uchun rahmat.

Assalomu alaykum va rohmatullohi va barokatuh.

Boshlanishi 1-sahifada.

O‘sha yetti mingga yaqin tillardan biri bo‘lmish o‘zbek tili – o‘zbek xalqining ehtiromli va e’tiborli ona tili mustaqillik sharofati bilan bugun qariyb o‘ttiz yetti millionli O‘zbekistonning o‘ktam davlat tili sifatida rivoj-u ravnaq yo‘lini tutgan. Biz ana shu muazzam tarixiy sananing o‘ttiz besh yilligini nishonlashdan cheksiz surur va huzur tuymoqdamiz.

Yaqin tariximizda “dohiy”ning “Til – kishilar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir” qabilidagi qoidasi yo‘rig‘ida tilni o‘ta jo‘n, oddiy va biryoqlama ta’rif bilan tavsifladik. Aslida, bu vazifa tilning vazifalaridan birginasi edi, xolos; bu ta’rif muayyan bir tilni boshqasi (aytaylik, xorijiy) bilan almashtirganda ham bajarilaverishi mumkin, degan qarashga yo‘l ochar edi... Holbuki, har qanday shaxsning irq-u e’tiqodi, zamin-u zamonidan qat’i nazar, milliy-ruhiy mag‘zini ona tili tayin va ta’min etadi. Aytish joizki, ayni shu milliy-ruhiy mag‘iz mutlaqo o‘ziga xos bir mohiyat bo‘lib, millatning tafakkur tarzini, “idrok ko‘zi”ni qat’iy belgilab beradi. Dunyo faylasuflari tomonidan ming yillardan beri ta’kidlab kelinayotgan til va tafakkurning birligi to‘g‘risidagi qat’iy qoidaning asl ma’nosi ham shu. Rus tilining mashhur izohli lug‘atini yaratgan Vladimir Dalning otasi – daniyalik, onasi esa olmon ayoli, uning mana bunday e’tirofi diqqatga sazovor: “Na mayl-istak, na diniy ishonch, na ajdodlar qoni insonning u yoki bu xalqqa mansubligini tayin etadi... Kim qaysi tilda o‘ylasa, u o‘sha xalqqa mansubdir...” Haqiqat shuki, til millatning tamalini tayin etadigan, iligini sog‘lom saqlaydigan, asrlardan asrlarga to‘zg‘itmay olib o‘tadigan betakror qudratdir.

Ma’lumki, bolaning ilk, tetapoya til malakalari, demakki, dunyoni milliy ko‘z bilan idrok etish tajribalari oilada tarkib topadi. Til haqida o‘ylaganimda, olmon tilshunosi Vilgelm fon Gumboldtning “Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko‘rishning farqliligi natijasidir”, degan gapi yodimga tushadi. Chindan ham, har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi, o‘ziga xos idrok intizomi, umumlashtirib aytganda, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. Bu o‘rinda yana alloma Vilgelm fon Gumboldtning “Turli tillar millatlar uchun ularning original tafakkur va original idrok organlari ekanligini umume’tirof etilgan haqiqat deyish mumkin”, degan gapini ham eslash joiz. U tafakkurning umuman til bilan bog‘liqqina emas, balki har bir alohida konkret til bilan shartlanganligini ta’kidlaydi. Gumboldt o‘zining “Inson tillari tuzilishining farqlari va uning insoniyat ma’naviy taraqqiyotiga ta’siri haqida” nomli yirik asarida “Til fikrni yaratuvchi organdir. Aqliy faoliyat va til yaxlit butunlikni tashkil etadi”, deb yozgan.

Men ona tilimizning, davlat tilining mavqeyi tushib ketgani haqidagi fikrga uncha qo‘shilmayman. Davlatimiz rahbari rahnamoligida bu yo‘nalishda olib borilayotgan qamrovli ishlar va ularning naqd natijalaridan aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi. Ayniqsa, so‘nggi besh yilda amalga oshirilgan oqilona ishlarning samarasi barchamizning ko‘z o‘ngimizda. To‘g‘ri, ona tiliga, davlat tiliga nopisandlik bilan qarashday ayrim nomaqbul holatlar ba’zi yoshlar orasida yo‘q emas. Ularning ildizlari, sabablarini, birinchi navbatda, oiladan izlagan ma’qul. Ona tiliga muhabbat tuyg‘usi qalbdan tugal joy olmog‘i uchun, eng avvalo, ota-ona, oila mas’ul ekanligini unutmaslik lozim. Bu behad mas’ul vazifani faqat maktabga tashlab qo‘yish aqlning ishi emas. Mazkur vazifa oilada amalga oshirilmasa, keyin juda kech va hech bo‘ladi. Chunki har qanday tarbiyaning, ayniqsa, til, ma’naviy komillik, milliy o‘zlik tarbiyasining bosh va betakror o‘chog‘i bolani doimiy o‘rab turgan ijtimoiy muhit, xususan, oiladir.

O‘zbekcha hikmatlardan birida mana bunday deyilgan: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Boshqacha qilib aytganda, qushning barcha harakat-u amallariga rasolik baxsh etmoq uchun, bu amallarning risolaga tamoman moslashmog‘i uchun, avvalo, ayni uyani va undagi harakatlarni risolaga solmoq kerak. Yana shu narsa ham aniqki, qush uyasida eshitganini aytadi. Qarg‘a bolasining o‘z inida eshitib qulog‘iga ilgani va tiliga tirgak qilgani “g‘aq-g‘aq”dir, u boshqa, masalan, bulbul inining doimiy xushohang sasi bo‘lmish “chah-chah”ni hech bir zamon tilida tiriltira olmaydi. Qarg‘aning “chah-chah” aylashi uchun u o‘z inida ko‘z ochgan damdanoq shu sas uning qulog‘ida ipakdek eshilmog‘i zarur... Nainki qush, odam bolasi ham shunday. Zotan, mazkur naql ham odam bolasi uchun aytilgan, faqat topib, ko‘ngil degan nozik xilqatning g‘oyat ingichka torchalarini titratmay aytilgan. Farzand tarbiyasida, bolaning til tarbiyasida uyning, ya’ni oilaning mutlaq hal qiluvchi omil ekanligi haqidagi bunday go‘zal va lo‘nda hikmatlar kishilik jamiyatining bir necha ming yillik tajribalari mahsuli sifatida yuzaga kelganligi tabiiy... Ko‘p tilni bilish juda yaxshi, bu bugungi davrning talabi. Farang ma’rifatparvari Volter aytganidek “Ko‘p tilni bilish bitta qulfga tushadigan bir necha kalitga ega bo‘lish bilan barobardir”. Ammo xorijiy tilni o‘rganish aslo ona tilini unutish hisobiga bo‘lmasligi zarur. Oilada ham ajnabiy tilning asosiy bo‘lishi ona tilida hali sobit bo‘lmagan bolaning tilga bo‘lgan muhabbatini muallaqlashtiradi, bunday hollarda ham siz aytgan ona tiliga nopisandlik bolalaydi...

– Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, ko‘plab kasblarda inson o‘rnini ham texnika egallayotgan asrda yashayapmiz. Zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt kabi sohalarni o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, albatta, ingliz tilini bilishingiz shart. Bir paytlar Erkin Vohidov: “Tillar yo‘qolur butkul, bir til qolur dunyoda”, deya qayg‘urgandi. Nima deb o‘ylaysiz, kun kelib dunyo ahli yagona tilga o‘tmasmikan? Taraqqiyot tillarning taqdiriga nechog‘li ta’sir qiladi?

– Zamonaviy ilg‘or fan, texnika, texnologiyalar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi chet so‘zlar, xususan, ingliz (amerika varianti) tili so‘zlari juda ko‘plab tillarga kirib bormoqda. Yaponshunos Vadim Alpatovning qayd etishicha, hatto boshqa tillar ta’siriga o‘ta hushyorlik bilan qaraydigan bugungi yaponlarning tilidagi kompyuter texnikasiga oid terminologiyaning naqd 99 foizi ingliz tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlardir. Ammo ta’kidlash lozimki, bu bilan qadim va boy tarixiy ildizlarga sohib bo‘lgan yapon tili o‘z mustahkam o‘zanlaridan chiqib ketgani yo‘q. Bugungi globallashgan dunyoda tillararo so‘z oldi-berdisi tabiiy ravishda faollashgan, bir mamlakatda paydo bo‘lgan muayyan bir ashyo aksariyat hollarda o‘zining o‘sha mamlakat tilidagi nomi bilan boshqasiga kirib bormoqda. Bu ham o‘ziga xos bir qonuniyat. Lekin ayni holatda xalq bor ekan, millat degan bikir va buyuk tushuncha tirik ekan, bu tilning tanazzuliga yoki boshqa tillarga qo‘shilib ketishiga olib kelmaydi. Dunyo ahlining ingliz tiliga yoki yagona boshqa tilga o‘tishi haqiqatdan tamoman mosuvo afsonadan boshqa narsa emas. Hech qanday taraqqiyot egasi tirik tilni ming yillar bilan o‘lchanuvchi takomil o‘zanlaridan chiqarib yubora olmaydi.

– Tilimiz fonetikasida ayrim bahsli masalalar bor. Masalan, “i” tovushini bitta harf ifodalaydi. Lekin nutqimizda ba’zan cho‘ziq, ba’zan qisqa talaffuz qilamiz. Tilshunos olimlarimiz shu kabi tovushlar ustida ham izlanishlar olib borishyaptimi?

– Bular unchalik ham bahsli masalalar emas. Siz aytganingizday, “i” tovushini bitta harf ifodalaydi, lekin nutqimizda ba’zan cho‘ziq, ba’zan qisqa talaffuz qilinadi. Bular imlo qoidalarida aniq-tiniq ko‘rsatilgan. Alifbodan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini, tabiiyki, imlo qoidalari belgilab beradi. Savodxonlikni ta’minlashda mukammal imlo qoidalari hal qiluvchi omillardandir. Savodxon bo‘lmagan jamiyatning kamoloti va taraqqiyoti haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ham alifboning imlosi masalasiga alohida e’tibor berilgan. Yetakchi tilshunoslardan iborat maxsus ishchi guruhi amaldagi imlo qoidalarini yaratish ustida jiddiy ish olib borgan va bunday qoidalarni ishlab chiqqanlar. Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida” qaror qabul qilgan. Albatta, mazkur qoidalarda yanada takomillashtirish mumkin bo‘lgan o‘rinlar yo‘q emas. Bugungi kunda alifboga ayrim o‘zgartirishlar kiritish mo‘ljallangan, shu o‘zgartirishlardan keyin alifbo asosida imlo qoidalari yanada to‘ldirilishi ko‘zda tutilgan.


– Tilimiz chetdan kirib kelgan so‘zlar, atamalar bilan boyib, o‘z so‘zlarimiz unutilib boryapti. Bu kabi so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirmasdan, lug‘at boyligimizni ularning o‘zbekcha muqobili bilan to‘ldirishimiz kerak emasmi? Bir necha yillar oldin aeroport o‘rniga tayyoragoh kabi so‘zlarni qo‘llash taklif qilingandi. Negadir, bu kabi so‘zlar iste’molda qo‘llanilmadi.

– Tilimizning boyib borishiday muhim va zaruriy jarayonda so‘z o‘zlashtirishda muayyan me’yor va chegara bo‘lishi, yangi so‘zlar yasashda o‘zbek tilining o‘ziga xos qonuniyatlarini nazardan qochirmaslik, eski so‘zlarni “tiriltirish”da va muhtasham zaxiramiz bo‘lmish xalq shevalaridan foydalanishda ziyraklik zarur bo‘ladi. Aks holda bu boradagi harakatlar ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Masalan, 90-yillarning boshida *tayyora, tayyoragoh, kulliyot, tahsilgoh, ilmgoh, minbargoh, hujjatasrovxona* kabi qanchadan-qancha so‘zlar “topildi” yoki mutlaqo sun’iy bir tarzda yasaldi va iste’molga tiqishtirildi. Ammo til dahosi ularni aslo qabul qilmadi. Eskirgan so‘zlarni tiklash ham tilimizning ming yillik boy zaxiralaridagi muayyan qismlarni harakatga keltirish, ishga solish demakdir. Masalan, ilgari “eskirgan” degan tamg‘a bilan yashagan vazir (ministr), viloyat (oblast), tuman (rayon), jarroh, jarrohlik (xirurg, xirurgiya) kabi bir qancha so‘zlar tilimizdan joy olganiga ancha bo‘ldi. Ona tiliga o‘rinsiz otalikni da’vo qilib bo‘lmaydi. Ona tilini boshqa tillarning tazyiqidan, so‘z bosqinidan asramoq kerak, qo‘rimoq zarur.

Biz istaymizmi-yo‘qmi, bir mamlakat tilidan boshqa tillarga u yoki bu zaruriyat

MILLIY TAFAKKUR







Nizomiddin MAHMUDOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

USTUNI

tufayli so‘z kiraveradi. Fan va texnologiyadagi muayyan kashfiyotlar, yutuqlar, eng kami, shu kashfiyotchining ismi yoki boshqa biror shaklda o‘zga tillarga kirish uchun yo‘l topaveradi. Zamonlar osha shunday bo‘lib kelgan. Bu o‘rinda birgina algoritmning “Al-Xorazmiy” ekanligini iftixor bilan eslashning o‘zi kifoya. Bugun ham shunday: “Mercedes”, “Samsung”, “Sony” kabi yuzlab muayyan bir tilning so‘zlari butun dunyo tillariga kirib borib bo‘lgan. *Hatto institut degan so‘zni go‘yoki o‘zbekcha oliygoh bilan almashtirishning ma’qul yoki ma’qul emasligi haqida mutlaqo keraksiz bahs-munozaralar avj olgan paytda marketing, menejer, broker, barter* kabi o‘zbekcha uchun mutlaqo yangi so‘zlar tilga kirib kelib bo‘ldi...

– Tilimizni akademik til, bilimlar tiliga aylantirish, uni kengroq yoyish uchun amalda nimalar qilinishi zarur deb hisoblaysiz?

– Tilimiz akademik til sifatida muntazam takomil topib bormoqda. Bugun mamlakatimizda o‘zbek tili deyarli barcha fan yo‘nalishlarida qamrovli tarzda qo‘llanmoqda. Albatta, har qanday fanni o‘rganish, o‘zlashtirish uchun uning alifbosidan – terminologiyasidan xabardorlik zarur bo‘ladi. Ma’lumki, fanning katta-kichik asosiy tushunchalari bevosita terminlar orqali ifodalanadi. Terminlar har qanday fan tilining asosini tashkil etishi haqidagi qoida bugun aksioma maqomini olib bo‘lgan. Shuning uchun ham tadqiqotchilar haqli ravishda “fan tili muammosi, eng avvalo, terminologik muammo sifatida qaralmog‘i lozim” ekanligini ta’kidlaydilar.

Tilda lingvomadaniy jihatlarning muqarrar ravishda mavjudligi antroposentrik tilshunoslik bag‘rida paydo bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishining to‘g‘ri va e’tirof etilgan g‘oyalaridan biridir. Tilning o‘ziga xos, maxsus birligi bo‘lmish terminlarda, ayniqsa, gumanitar fanlar terminosistemalarida lingvomadaniy unsurning bo‘lmasligi mumkin emas. Chunki gumanitar fanlar xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa xususiyatlarini aks ettiradi. Tabiiy va aniq fanlar esa insonga tobe bo‘lmagan, obyektiv hodisalarni o‘rganadi. Shunga ko‘ra ularni nomlovchi termin asosida yotgan ilmiy tushuncha lingvomadaniy belgiga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Ammo hatto ayrim texnik terminlar ham mexanizm (asbob, qurol kabilar)ni ishlatishdagi milliy o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi lingvomadaniy axborotni o‘z ichiga olishi mumkin, deb hisoblash uchun asoslar mavjud.

Bu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, gumanitar fanlarning tili, xususan, uning terminosistemalari milliy-madaniy mentallikdan, emotsional-ekspressivlikdan tamoman xoli bo‘lolmaydi. Boshqacha aytganda, gumanitar fanlarning tili tabiiy va aniq fanlar tillaridan farqli ravishda quruq, “egasiz” bo‘lmasligi kerak. Gumanitar fanlar tilida har bir tabiiy tilning o‘ziga xos boyligi, ta’sirchanligi, “issiq”ligi tajassumini topmog‘i maqsadga muvofiq. Gumanitar fanlarning aksariyati tabiiy fanlardan farqli ravishda faqat tor doiradagi mutaxassislargagina emas, balki anchayin keng ommaga ham qaratilganligini unutmaslik lozim. O‘zbekistonda fan tili ana shu o‘zanlarda harakat qilmoqda. Mamlakatimizda nashr etilayotgan turli fan sohalariga oid ko‘plab terminologik (atamalar) lug‘atlarni mamnuniyat bilan tilga olish mumkin. Zotan, bunday lug‘atlar fanning ham, tilning ham o‘ziga xos taraqqiyot darajasini ko‘rsatadi... Dangal aytish joizki, har qanday til, xususan, o‘zbek tili aqliy va ma’naviy tadrij dunyosining, milliy tafakkur va taxayyul olamining bikir va buyuk ustunidir.

Gapim yakunida, barchani O‘zbek tili bayrami kuni bilan chin dildan tabriklayman!

– Bayram sizga ham muborak bo‘lsin! Mazmunli va foydali suhbat uchun tashakkur.

Muyassar IBROHIMOVA suhbatlashdi.

FORUM

MAXTUMQULI – BASHARIYAT SHOIRI



Ashxobod shahrida bo‘lib o‘tgan Maxtumquli tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlangan “Davrlar va sivilizatsiyalarning o‘zaro aloqasi – tinchlik va taraqqiyot asosi” nomli xalqaro forumda o‘ndan oshiq davlatdan nufuzli mehmonlar ishtirok etdi. To‘g‘risi, mehmonlarning dil so‘zlari va ulug‘ shoirga hurmatidan, ayni damda, mezbonlardagi bayramona kayfiyat va ularning samimiyatidan barchaning ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi.

XALQARO FORUM

Turkmaniston Prezidenti qarori bilan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Maxtumquli Firog‘iyning 300 yilligi” esdalik medali bilan taqdirlandi. Mazkur nufuzli Forumda qatnashgan turli respublika Prezidentlari o‘z ona tillarida nutq so‘zladi. Men ishtirokchi sifatida davlatimiz rahbari nutqini diqqat bilan tingladim: **“Maxtumquli o‘zbek xalqi uchun ham g‘oyat ardoqli va suyukli siymo ekani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz. Ul zot Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida tahsil olgan, dunyoviy va diniy ilmlarni chuqur o‘rgangan. Ayni vaqtda u buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ijodini yuksak qadrlagani ham mushtarak tariximiz sahifalari orqali yaxshi ma’lum.**

Bugungi kunda o‘lkamizda Maxtumqulining dilbar she’rlari va qo‘shiqlari doimo yangrab, qalblarimizda yashab kelmoqda. Hech shubhasiz, uning boqiy asarlari azaldan bir-biriga qardosh va yelkadosh bo‘lgan xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik tuyg‘ularini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda”. Prezidentning bu samimiy fikrlari, xususan, shoirning Xivada ta’lim olgani, hazrat Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz bilgani haqidagi tarixiy haqiqat anjuman ahlini befarq qoldirmadi, nazarimda.

Dunyo tamadduniga ulkan ma’naviy-ma’rifiy ulush qo‘shgan muazzam shaxsiyatlar shunchaki, o‘z-o‘zidan dunyoga kelmaydi. Ildizlari, an’analari, geni, iste’dodi, o‘zining mehnat-mashaqqati ortidan orttirgan bilim va tajribalari ularni yer yuzida bashariyatning bamisoli zulmatni yorituvchi porloq yulduziga aylantiradi. Xalqaro anjuman kunlari “Va’zi Ozod”, “Behishtnoma”, “Masnaviy”, qator g‘azal va ruboiylar yozgan shoirning otasi – Davlatmamat Ozodiy ham ko‘p tilga olindi. Ota haqidagi ma’lumot va tavsiflarni taqdim etadigan eng yaxshi manba – bu shubhasiz, Maxtumqulining she’rlaridir. Shoirning otasiga ehtiromi balqib turgan “Mulla Ozodim”, “Otamning”, “Ozodim qani?” singari qator she’rlari bor.

“Mulla Ozodim” she’rida ota shuhratini “Ovozi jumla jahonga to‘ldi”, deb yozadi. Maxtumquli boshqa bir – “O‘g‘lim – Ozodim” aytishuv she’rida otasidan ilm olish uchun safarga ketishni so‘raydi. Otasi duo berib, oq yo‘l tilaydi. “Haq yo‘ldoshing bo‘lsin, mayli, bor, o‘g‘lim!” Otaning rizoligi har narsadan ulug‘. Ota-bola o‘rtasidagi bunday munosabat orasta sharqona odob-axloqlarga amalning yaqqol namunasidir.

Tasavvur qiling, Maxtumquli safarga ketar mahali otasidan ruxsat so‘rab, duo olib yo‘lga chiqadi. Ta’lim olgandan keyin otasining imtihonidan o‘tadi. Vafot etganida marsiya yozadi. Maxtumquli “ko‘zining nuri” bo‘lmish otasini sog‘inganda yozgan hissiyotli misralari har qanday odam yuragini titroqqa soladi. Davlatmamat Ozodiyning ijodiy merosi, komil qarashlari, asarlarining umumbashariy mohiyati Maxtumquli suv ichgan zilol buloqlarni, dunyoqarashini shakllantirgan va unga ma’naviy ozuqa bergan muhitni tasavvur qilishga yordam beradi. Qolaversa, Maxtumqulidek bir daho islomiy ma’rifat bilan butun vujudi limmo-lim to‘lgan shoirning dunyoga kelishi sabablari ustida o‘ylaydi odam. Halol luqma, teran ta’lim-tarbiya, haqqo‘y ustozlar, jiddiy mushohada, yuksak odamiylik – bularning barcha-barchasi jamuljam bo‘lgan bir vaziyat Maxtumquli dahosini tarix sahnasiga olib chiqdi...

Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida o‘qigan Maxtumquli bu dargohda ko‘plab do‘stlar orttirdi. Ulkan madaniyat, ma’rifat markazi bo‘lgan bu muazzam shaharning ma’naviy muhiti Maxtumqulining adabiy-estetik didi, dunyoqarashi shakllanishiga, chinakam shoir bo‘lib yetishuviga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Shu bois tabarruk ta’lim maskaniga qarab “Xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi” degan she’rini yozdi shoir:

Makon aylab, uch yil yedim tuzingni,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi!”
O‘tkazdim qishingni, navro‘z, yozingni,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi!”

Toshning, g‘ishtning, binoning tili yo‘q, joni yo‘q. Biroq shoirlar tilsiz-zabonsiz obyektlar bilan “gurung”lashishi, ularni jonlantirishi mumkin bemalol. Nazarimda, Xivadagi Sherg‘ozi madrasasi aynan Maxtumquli she’ri tufayli hali-hanuz tirik va jonli. Shu kunga dovur madrasaning mahobatli binosi har bir ziyoratchiga nafaqat g‘aroyib tarixi va yoki me’morini, balki uch yuz yilga yaqin vaqt narida qoyilmaqom qilib she’riy vasfini yozib qoldirgan Maxtumqulidek sodiq va sobiq talabasini ham takror va takror eslatib turadi.

QARDOSHLIK SAODATI

Maxtumquli shaxsi va adabiy siymosining juda ko‘p qirralari, xususan, shoirning ilm olishi, o‘zbek shoirlarini o‘ziga ustoz bilgani, do‘stlar orttirgani kabi ko‘plab jihatlari, Respublika Prezidenti o‘z nutqida ta’kidlaganidek, O‘zbekiston bilan bog‘liq, albatta.

Maxtumquli ijodi bilan O‘zbekiston ma’naviy muhiti o‘rtasida mustahkam rishtalar bor. Zero, shoir tavalludining 300 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, mamlakatning qator oliy o‘quv yurtlarida, turli nufuzli tashkilotlarda ko‘plab bayramona tadbirlar, ilmiy-adabiy anjumanlar tashkil etildi. Bu tadbirlarda O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid tashkilotchi va ma’ruzachi sifatida faol qatnashganidan xabarim bor. Shoirning xizmatlari Turkmaniston Respublikasi hukumati tomonidan e’tirof etildi va u “Maxtumquli Firog‘iyning 300 yilligi” esdalik medali bilan taqdirlandi. Mukofot taqdimotida mamnuniyat bilan so‘zlar ekan, Sirojiddin Sayyid o‘zining maxtumquliyona pafosli “O‘zbek, turkman manzumasi”ni o‘qiy boshladi. She’rda qon-qardosh, do‘st-birodar, qadimdan quda-anda bo‘lgan o‘zbek bilan turkman millati tabiatiga xos go‘zal fazilatlar bayon etiladi:

Olamni lol etgan hayrati bordir,
Saodati bordir, san’ati bordir.
Ketmas bo‘lib kelgan davlati bordir,
Davr-u davronlari o‘zbek, turkmanning...

– shu tarzda she’r tuganchiga yetganida majlis ahli shoirni olqishlashdi.

ULUG‘VOR E’TIROF

Forumga xorijdan kelgan mehmonlar – turkiyalik, qozog‘istonlik, qirg‘izistonlik, rossiyalik, armanistonlik, eronlik maxtumqulishunos va mutarjimlarning ayrimlari bilan avvaldan tanishligimiz bor. Ular ulug‘ turkman shoiriga ehtiromini o‘z tillarida yozgan risola va maqolalarida bayon qilgan, shu bilan birga shoir she’rlarini o‘z ona tillariga tarjima qilib, tabiiyki, Maxtumquli she’riyatining dunyo bo‘ylab yoyilishiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Qirg‘iziston Fanlar akademiyasi akademigi, adabiyotshunos Abdullajon Ahmataliyev Maxtumqulining she’riyati va shon-shuhrati xususida gapirganida Chingiz Aytmatovning: *“Sharqda XVIII asr Maxtumquli Firog‘iy asridir... Maxtumquli so‘zlari bizning kunlargacha yetib kelishi – bu turkman xalqining jasoratidir. Maxtumqulini har bir turkman o‘z yuragida avaylab saqladi” hamda “Maxtumqulining bizga qoldirgan merosi xalqchilligi va hayotiyligi uchun qimmatli”,* degan fikrlariga urg‘u berdi. Ulug‘larning ulug‘larni e’tirof etgan so‘zlari ham ulug‘vor bo‘ladi.

Bir necha yildan beri Anqarada ishlayotgan taniqli turkman olimi Berdi Sariyev muhim bir gapni aytdi: *“Shoirga jon qo‘shnimiz, ildizimiz, urf-odatlarimiz bir bo‘lgan o‘zbeklar diyorining ehtiromi o‘zgacha. Bilaman, ular Maxtumquli she’rlarini juda yaxshi ko‘rishadi. O‘zbeklarning bag‘rikengligini hurmat qilaman. Dunyo o‘zbek ziyolilaridan ko‘p narsalarni o‘rganishi lozim...”* Bu gaplardan g‘ururlandim. Haqiqatan, o‘zbek olimlari Maxtumquli ijodini jiddiy o‘rgandi, dissertatsiyalar, risolalar, ulkan monografiyalar yozishdi. Shu bilan birga Maxtumquli she’rlarini zamonaviy o‘zbek tiliga moslashtirib o‘girganlar – mutarjimlarning ulkan bir ro‘yxati paydo bo‘ldi.

Maxtumqulidan qolgan meros qiymati shundaki, adabiy-nazariy tomondan juda ko‘p masalalarga, jumboqlarga yechim bera oladi. She’rning hikmatona tabiati, shakli, ohangi va inson qalbiga yo‘l topishi kabi xususiyatlar – bular Maxtumqulidan qolgan badiiy merosda jamuljamdir.

Ilmiy-nazariy jihatdan qaralsa, aslida, she’r monologik nutq asosiga qurilgan kechinma, his-tuyg‘ular ifodasi sanaladi. Shoir arzi holini bamisoli o‘zi-o‘ziga so‘zlab, yuragini bo‘shatadi. Agar bu individual hissiyotning poetik bayoni boshqalar qalbidan joy olsa, albatta, zavq paydo bo‘ladi; umumbashariy mohiyatga ega bunday she’rlarning umri asrlar chegarasidan oshadi.

“MOHIYATI NIMA DUNYONING?”

Maxtumquli yozganlarini o‘qib, she’r tabiatiga xos muhim jihatga urg‘u berish zarurga o‘xshab ko‘rinadi. Nazarimda, shoir adabiy merosida she’rning dialogik tabiatini namoyon etadigan ko‘plab misollar topiladi. Maxtumquli she’riyatidagi bu xususiyatni bo‘rttirib ko‘rsatish bilan adabiyotshunoslikdagi ilmiy-nazariy fikrlar ko‘lamini kengaytirish mumkin.

Aslida she’rning dialogik tabiati folklorda, mumtoz adabiyotda bor hodisa. Maxtumquli bu she’riy shakldan juda unumli foydalandi. Shoirning otasi Ozodiy bilan she’riy suhbati, “Bizdan salom bo‘lsin ul O‘roz Xonga”, “Turdi shoir bilan Maxtumquli aytishuvi”, “Maxtumquli bilan Zunubiy aytishuvi”, “Turgil!” dedilar!..”, “Bir necha misol” kabi she’rlarida shu xususiyat aniq-tiniq ko‘zga tashlanadi.

Dedim: “Mohiyati nima dunyoning?”
Dedi: “Yotsang tush-u, uyg‘onsang xayol”.

Dedim: “Qachongacha nafsim bo‘lar rom?”
“Ta’zirin yeguncha cho‘zilar bu hol”.

Maxtumquli so‘zi durdir bilganga,
Aql-u hushing bo‘lsa, unga quloq sol.

So‘zlari marvarid-dur bo‘lgan donishmand, mutafakkir shoir Maxtumquli Firog‘iyga bag‘ishlangan xalqaro anjuman kunlari asrlar chegarasidan shitob bilan o‘tib kelayotgan iste’dod egasining ijodiy biografiyasi, kuch-quvvati, qudrati va uch yuz yillik umri haqida ko‘p o‘yladim.

Maxtumqulining dilini, ko‘ngil dardini tushunishni istadim. Shoir: “Kel, ko‘nglim, men senga nasihat qilay”, deb o‘ziga murojaat etadi. Zotan, ichkari, ko‘ngil esa to‘xtovsiz evriladi, qaynaydi, o‘zgaradi, sokin tortadi. Gohida nasihatni eshitadi, ba’zan o‘z xohish yo‘lidan yuradi. Aslida, ko‘ngil pokligi va xotirjamligi – inson uchun bebaho saodat.

Maxtumquli she’rlarida ko‘ngil tilga kirib so‘zlaydi: *“Ko‘ngil aytar: sayr etib, olam-jahonni ko‘rsam”, “Ko‘ngil der: xalqdan uzilib, Kezsam tog‘-u toshlar bilan” yoki “Ko‘ngil aytar: yo‘ldosh bo‘lsam, Oh urgan darveshlar bilan”.* Bunday misralarda ko‘ngil moddiylashadi, shoirning so‘zlayotgan tiliga evriladi. Ba’zida lirik qahramon ko‘ngil mayli, ma’naviy-ruhiy kayfiyati darveshlar davrasini ham qo‘msaydi. Dunyo mohiyatini chuqur anglagan odam yolg‘izlikni, darveshona hayotni, Yaratgan bilan yolg‘iz qolishni istab qoladi. Gohida siqilgan inson ko‘ngliga qil sig‘maydi. Ba’zan ko‘ngilga koinot, borliq joylanadi.

Ko‘ngil royishiga, sayr-u sulukiga chegara-sarhad yo‘qdir. Maxtumquli ko‘ngilni qal’a-shaharga o‘xshatadi. Barcha yaxshi biladigan Durdi shoir bilan aytishuvida “U nimadir darvozasiz qal’adir”, degan savolga “U ko‘ngildir darvozasiz qal’adir”, degan javob beriladi. Darvozasiz qal’a qo‘rg‘onlanmagan, qo‘riqlanmagan joy. Ko‘ngilni egasi qo‘riqlashi, qo‘rg‘onlashi mumkin. Ko‘ngil o‘zining barcha sifatlari bilan badiiy adabiyotning, she’riyatning abadiy mavzusi. Chin shoir ko‘ngil ko‘zi ochiq inson bo‘lgani uchun ham ardoqqa munosib, albatta.

300 YOSHLI MEZBON

To‘g‘risi, Maxtumquli Firog‘iyning insoniyatga taqdim etgan bebaho adabiy merosi asos-negizini bir so‘z bilan ifodalash qiyin. Qisqa ifoda lozim bo‘lsa, “Maxtumquli – bashariyat shoiri” demoq o‘rinlidir balki. Biroq bu ta’birdan keyin ham yana boshqa tavsiflar xayolga yog‘ilib kelaveradi. Ziddiyatli va qorishiq tuyg‘ular girdobini gohida shoirlar bitta haqqoniy fikr o‘zaniga solib berishadi. Maxtumquli she’rlarida butun zamin ahli kamoloti uchun zarur bo‘lgan juda ko‘plab o‘gitli, odamning go‘zal his-tuyg‘ulari tarbiyasiga bag‘ishlangan butun boshli she’rlar bor. Ularda tinchlik, xotirjamlik, birdamlik, ko‘ngil obodligi, dunyoning moddiy va ma’naviy holi badiiy talqin etiladi. *“Yomon yaxshi bo‘lmas hech on, Asli yaxshi bo‘lmas yomon...”, “O‘g‘ri erdan bir to‘g‘ri it yaxshi”, “Halol luqma nur bag‘ishlar ko‘zlarga”, “Komil mard yigitlar haqingni yemas, Dunyo molin bersang, nomardlar to‘ymas”* kabi hikmatli misralar allaqachon xalqning ma’naviy mulkiga aylandi.

Yaxshiga nazar va yomondan hazar, halollik, to‘g‘rilik, mardlik, saxovat va shu kabi axloqiy-ma’naviy fazilatlar poetik talqin etilgan she’rlarning umri uzun bo‘ladi.

Umid uzgil xomxayoldan,
Senga foyda yo‘qdir moldan,
Turmushing kechsa haloldan,
Oriflar suhbati kerak.

Maxtumquli aslida orif shoir. Oriflik esa baland martaba. Ma’rifat so‘zining qadrini bilgan har kim undan ibrat oladi. Shoir aytmoqchi faqatgina “orif qadrin bilmas befahm nodonlar”.

Maxtumqulining she’riy so‘zi zamonlar o‘tgan sari mahobat kasb etadi. “Fikr daryosiga aqlim kemasin botirmishman”, deb yozgan shoirning fikri, fahmi, yurak so‘zi bugun ummonga do‘ndi. Shuning uchun ham “Maxtumquli Firog‘iy fahm-u hikmat ummoni” degan bir jumla xalqaro forumda juda ko‘p bora takrorlandi. Bu bebaho xazinali ummondan so‘z shaydolari asrlar bo‘yi dur-javhar terishadi, ularni marjondek ipga tizishadi; shoir she’rlarini takror o‘qishadi va uqishadi.

Maxtumquli ijodini uqib o‘qigan shoirlar, to‘g‘risi, olim, mutafakkir bo‘ladi. Ayni damda Maxtumqulining she’rlari har qanday odamga, ilm ahliga ham ilhom beradi. Shunda yurak to‘lqinlari beixtiyor she’rga ko‘chadi.

Deylik:

Maxtumquli – ruhi-joni turkmanning,
Tomirida oqar qoni turkmanning.

Maxtumquli – dil kotibi turkmanning,
Odamzotga Haq xotibi turkmanning.

Maxtumquli – ishq fununi turkmanning,
Layli-Layli, o, Majnuni turkmanning.

Maxtumquli – ko‘ngil sharhi turkmanning,
Olamqo‘shar – G‘arb-u Sharqi turkmanning.

Maxtumquli – sarbonidir turkmanning,
Uch yuz yoshli mezbonidir turkmanning...

– misralari kabi.

Shoir tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro forumda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan ziyolilar “Maxtumquli Firog‘iyning 300 yilligi” esdalik medali bilan taqdirlanishdi.

Oqildor shoir ijodining muhibi va muxlisi sifatida shu taqdirlanganlar qatorida men ham borman.

To‘g‘risi, bunday e’tirof va e’tibordan mamnun bo‘ldim.

Bahodir KARIM

2024-yil 18-oktyabr
№ 43(43)

OZODLIKKA O‘RNATILGAN HAYKAL

Boshlanishi 1-sahifada.





Davlatimiz rahbari Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida ezgu bir tashabbusni ilgari surgan edi: **“Furqat 50 yillik qisqa umri davomida mohir publitsist, tadqiqotchi, jahongashta olim sifatida noyob iste’dodini namoyon etgan. Uning bundan keyingi fojiali hayoti, musofirlikda qolib, Vatanni sog‘inib yashagani ham sizlarga yaxshi ma’lum. Furqat – Farg‘ona jadidlarining ma’naviy otasi bo‘lgan. Mana, biz yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga harakat qilyapmiz. Hech shubhasiz, agar mustamlaka tuzumining qatag‘on siyosati bo‘lmaganida, ushbu Renessansni ma’rifatparvar jadid bobolarimiz yaratgan bo‘lar edi”.**

Yurtboshimiz Zokirjon Furqatning Vatan va millat oldidagi buyuk xizmatlarini inobatga olib, uning ijodini yanada keng ommalashtirish, jumladan, Qo‘qon shahri markazidagi Furqat bog‘ida shoirning haykalini o‘rnatish taklifini bildirgandi. Ana shu ezgu tashabbus amalga oshib, tarixiy Xo‘qandi latif markazida ulug‘ shoir haykali qad rostlagani, Xitoyning Shinjon viloyati Yorkent shahridagi Furqat qabridan bir hovuch xok keltirilib, Shayxon qabristonida ramziy qabri barpo etilishini tarixiy voqea sifatida ta’kidlash mumkin.

O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotini Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodiy merosidan ayri tasavvur etish mahol. Chunki milliy o‘zlikni anglash, Vatan va millatning istibdod iskanjasidan xalos bo‘lishi, erk va ozodlik g‘oyalari uning asarlari mohiyatini belgilagan. Faqat bugina emas, shoir o‘zi mansub xalqning zamona ahvolidan ogoh bo‘lmog‘ini, jaholat uyqusidan uyg‘onmog‘ini, ma’rifatdan bahra olmog‘ini orzu qildi. Rusiya gimnaziyasi haqida she’r yozar ekan, millat bolalarining shu singari zamonaviy ta’lim maskanlarida o‘qishini istadi. Vistavkani, teatrni vasf etar ekan, shunday madaniy hodisalarsiz taraqqiy etish imkonsiz ekanini angladi va anglatmoqqa urindi. Aniqroq aytganda, har bir ishda Vatan va millat manfaatini ustuvor bildi.

Shoirning xorijga ketish va yurtga qayta olmaslik sabablari shu paytgacha turlicha talqin etilgan. Bu haqda hech qanday asossiz, hujjat-dalilsiz har xil taxmin-u gumonlar ham bildirilgan. Arxiv hujjatlari va mavjud manbalar tadqiqi Furqatning chet elga ketishining ikki sababi bo‘lganini ko‘rsatadi: birinchisi, shoirning o‘sha kezdagi mustamlaka siyosatini ochiqdan ochiq qoralab asarlar yozgani; ikkinchisi, Furqat ma’rifatparvarlik faoliyatining Vatan va millat manfaatlariga asoslangani.

Chor istibdodi Turkiston xalqlari hayotining barcha – siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy jabhalarini birday iskanjaga olgani ma’lum. Tabiiyki, millatparvar ziyolilar, jumladan Furqat ham bunga befarq qaragan emas. G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida 7050-raqami bilan saqlanayotgan “Sharhi risolat ush-shamsiya” asari qo‘lyozmasining hoshiyasiga bitilgan “Munojoti musaddas” asari buning yorqin dalilidir. Hajman salmoqli, 108 misradan iborat mazkur musaddasda shoir bunday yozgan edi:

Zulmatni girdbodi tegdi, quyunda qolduk,
To‘foni hayrat, eyki, g‘arqi jununda qolduk,
G‘aflat ila o‘tub umr, kulgu-o‘yunda qolduk,
Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk,
Rahm aylag‘il, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Furqat “Zulmat girdbodi, quyun, to‘foni hayrat, g‘arqi jun” kabi timsollar, “Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk” obrazli tasviri vositasida mustamlaka siyosatining mohiyatini fosh etadi. Zero, bu istibdod siyosati millat hayotining barcha jabhalarini birday asoratga olgani, milliy istiqlolga, nurli istiqbolga eltadigan barcha yo‘llarning batamom to‘sib qo‘yilgani bugun hech kimga sir emas.

Istilochilarning mustabid siyosatini butun mohiyati bilan fosh qilish, millatni ogoh etishga bo‘lgan intilishi, jabr-u zulmga, adolatsizlikka bo‘lgan nafrat Furqatning boshqa asarlarida ham aks etgan. Jumladan, “Bo‘ldi” radifli muxammasida shoir mana bunday yozadi:

Bahor ayyomi o‘tti, na gul-u sarv-u suman qoldi –
Ki, bulbul birla qumri o‘rniga zog‘-u zag‘an qoldi,
Na jomi marg ichmay lola-i xuning, kafan qoldi,
Chamanlardin nishon hech qolmadi, illo tikan qoldi,
Zimistoni ajalni bodidin bori xazon bo‘ldi.

Bahor – taraqqiyot ramzi. Shoirning yozishicha, u o‘tib bo‘lgan. Shuning uchun ham bulbul birla qumri o‘rnini zog‘-u zag‘an egallagan. Bu – yurt istibdod iskanjasida qolganiga ishora. Ajal zimistoni – istibdod timsoli. U bor mavjudlikni xazonga aylantirgan. Binobarin, ajal zimistoni – istibdod siyosati bois milliy an’analar toptalib, millat boshiga qora kunlar tushgan, uning huquqi, erki poymol etilgan.

Yumub ko‘zni, qadamni mardlar sori adam qo‘ydi,
Vafosiz dahr alarni jonig‘a toki alam qo‘ydi,
Ajal farzandi odamni jahon mulkida kam qo‘ydi,
Ming-u uch yuz birinchig‘a sana tokim qadam qo‘ydi,
Hamani emdi ko‘z tutgoni bir Sohibqiron bo‘ldi.

Adam – yo‘qlik, demakdir. Bu misrada mardlar, ya’ni millat ziyolilarining qatag‘on girdobiga tashlanganiga ishora etyapti shoir. Natija shunday bo‘ldiki, “Ajal farzandi odamni jahon mulkida kam qo‘ydi”. Ya’ni, bu hol ommaviy tus oldi.

Keyingi misrada shoir ta’rix san’atining sarih usulini qo‘llash orqali bu fojialar ro‘y bergan sanani ham ochiq yozadi: “Ming-u uch yuz birinchig‘a sana tokim qadam qo‘ydi”. Hijriy 1301-yil milodiy 1883-1884-yillarga to‘g‘ri keladi. Demak, bosqinning avj pallasi haqida gap ketyapti. Bu, o‘z navbatida, muxammas yozilgan sanani ham bildiradi. Beshinchi misrada yanada ahamiyatli fikr ifodalangan: “Hamani emdi ko‘z tutgoni bir Sohibqiron bo‘ldi”. Darhaqiqat, millat bu paytda Sohibqiron Amir Temurdek yo‘lboshchiga muhtoj edi. Yurtni mo‘g‘ullar zulmidan ozod qilgan Sohibqiron – milliy ozodlik timsoli. Shuning uchun ham shoir millatga uningdek bir rahnamo kelishini orzu qiladi. Ko‘rinib turibdiki, she’rda ozodlikka, milliy istiqlolga intilish tuyg‘usi chuqur dard, betakror badiiyat bilan ifodalangan. Bu tuyg‘u ba’zan ochiqcha, ayrim hollarda esa misralar tagmatnida aks etgani kuzatiladi.

Keyingi izlanishlar natijasida aniqlaganimiz – shoirning shu paytgacha ma’lum bo‘lmagan “Begim” radifli dastxat she’ri ham bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. G‘azal matni bir varaq fabrika qog‘oziga binafsharang siyohda shikasta aralash nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Varaqning o‘ng tomonida matnni o‘qishga xalal bermaydigan dog‘ bor. Ushbu 17 baytli she’r 1889–1891-yillarda, Furqat Toshkentda yashagan davrda yozilgan. Dastxat XIX asr xattotlik san’atining nodir namunasi sifatida ham ahamiyatlidir.

G‘azaldan olingan quyidagi misralar shoirning mustamlaka siyosatiga bo‘lgan murosasiz munosabatiga dalil bo‘la oladi:

Sho‘bada izhor etib nogoh charxi hiylasoz,
Boshladi afsun ila makr-u dag‘osidin, begim.
G‘uncha-i davlatni gul yanglig‘ parishon ayladi,
Tundbodi hodisoti mojarosidin, begim.
Oxirulamr hukumat gulshani bo‘ldi xazon,
Keldi zog‘-u qoldi bulbullar navosidin, begim.

Mazkur baytlarda yurtning taraqqiyot quyoshi so‘nib, tanazzul shomi boshlangani so‘ngsiz hasrat bilan ifodalangan. Charxi hiylasozning afsun ila makr-u dag‘osi – o‘sha kezlari mamlakatda kechgan fitna-fasodlar, inqiroz jarayoni timsoli. Natijada “...g‘uncha-i davlat gul yanglig‘ parishon bo‘lgan. Hukumat gulshani xazonga aylangan”. Zog‘lar kelishi bilan bulbullar navosi tingan. Binobarin, bulbul bog‘da sayraydi. Zog‘ning makoni esa – vayrona. Mustamlakadagi Turkistonning ayanchli ahvolini Furqatgacha hech qaysi shoir bunchalik ta’sirli ifodalay olgan emas.

Shoir millat dardini chuqur his qilgan, ko‘ngil iztiroblarini quyma misralar orqali bayon etgan. She’r duo mazmunida bitilgan quyidagi baytlar bilan yakunlanadi:

Jonsipor-u qadrdonlig‘din bejuz bir tuhfa yo‘q,
Hazratingg‘a Furqatiy xolis duosidin, begim:
Soya-i Tangri nasib etgay saning boshingga ham,
Zoyil o‘lmas bobaqo davlat humosidin, begim.

Ya’ni shoir she’rni xayrli duo bilan yakunlagan. Millat o‘sha kezda mahrum bo‘lgan Tangrining soyasi – davlatchilikning barham topishi vaqtinchalikdir. Uning boshiga davlatning humo qushi, albatta, qo‘najakdir. Furqat yashagan tarixiy vaziyatda, o‘sha ijtimoiy muhitda bunday fikrni ifodalash chinakam jasorat edi.

Mazkur asarlar yozilgan sanalar (“Munojoti musaddas” 1879-yili, “Bo‘ldi” radifli muxammas 1885-yili, “Begim” radifli g‘azali 1890-yili yozilgan) ko‘rsatib turibdiki, shoirning mustamlaka siyosatiga bo‘lgan munosabati yillar o‘tishi bilan ham o‘zgarmagan. Faqat istibdodni qoralash ruhi dastlabki asarlarda ochiqroq aks etgan bo‘lsa, keyingilarida ko‘proq obraz va timsollar zamirida ifodalangan. Tabiiyki, mustabid siyosatni qoralovchi, fosh etuvchi bunday asarlar mustamlaka ma’muriyati manfaatlariga zid edi. Bu esa mazkur hukumat shoirdan qutulish uchun uni mamlakat hududidan chiqarib yuborishning barcha choralarini ko‘rgan, bir so‘z bilan aytganda, Furqatning xorijga ketishi va ona yurtga qaytmasligi masalasi general-gubernatorlik tomonidan rejali asosda maxsus uyushtirilgan, deb hisoblash uchun yetarli asos beradi.

Furqat murakkab va ziddiyatli davrda yashab ijod qildi. O‘z asarlari orqali ilmning, ma’rifatning beqiyos ahamiyatini alohida ta’kidladi, ilm-u ma’rifatga millatni muqarrar tanazzuldan qutqaruvchi yagona vosita, “ko‘ngullarni sururi, ko‘rar ko‘zlarni nuri” deb qaradi. Shoir chor istibdodining fojiaviy oqibatlarini fosh etish barobarida millat farzandlarini o‘sha paytda nisbatan ilg‘or bo‘lgan rus madaniyatini o‘rganishga, undan o‘z manfaatimiz yo‘lida foydalanishga chaqirdi. Shoirning Vatan va millat manfaatiga asoslangan ma’rifatparvarlik faoliyati mustamlaka ma’muriyatiga ma’qul kelmagani aniq. Furqatning xorijga chiqarib yuborilishiga ikkinchi sabab shu. Mustamlaka siyosatiga bo‘lgan murosasiz munosabati xorijda yozilgan she’rlari tagmatnida ifodalandi. Shuning uchun ham yurtga qaytish yo‘llari berkitib qo‘yildi.

Furqat hayoti va ijodining eng samarali o‘n sakkiz yili jonidan ham ortiq sevgan ona Vatanidan ayriliqda kechdi. U chet ellarda yashagan kezlarida ham she’rlarida ona Vataniga bo‘lgan muhabbati va sog‘inchini yurak qo‘ri bilan ifodaladi.

Vatanning ishtiyoqin tortaram g‘urbat g‘ami birlan,
Turubdurman qutulmay g‘ussa-yu ranj-u inolardin,

– deya ko‘ngil hasratini yoniq misralarda ifodaladi. Istanbulda ekan, noyob asarlaridan biri “Sabog‘a maktub” dunyo yuzini ko‘rdi. “Sayding qo‘yaber sayyod” musaddasi Hindistonda ekanida yaratildi. Haj ibodatini ado etar ekan, adabiyotimiz tarixida yagona hisoblangan nodir asari – “Hajnoma”ni bitdi.

Shu o‘rinda muhim bir masalaga to‘xtalish zarurati seziladi. Bu – Furqat qarashlari milliy uyg‘onish harakati namoyandalari, millatparvar jadidlar tomonidan davom ettirilgani masalasi. Binobarin, Furqat va jadidlar qarashlarida muayyan izchillik, davomiylik mavjudki, bu ko‘pdan tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda. Biroq, afsuski, adabiyotshunoslikda bu masala shu paytgacha o‘rganilmay keldi.

Bu haqda dastlab xorijlik tadqiqotchilar ishlarida fikr yuritilgan. Jumladan, boshqird olimi Zaki Validiy “Bugungi turk eli: Turkiston va yaqin tarixi” kitobining maxsus bobini “Yangi o‘zbek adabiyoti” deb nomlaydi. Olim yangi o‘zbek adabiyoti tadqiqini Furqat asarlari tahlilidan boshlaydi. “O‘zbeklarning Ovrupa va rus madaniyati ta’sirida inkishof etgan yangi adabiyoti hanuz juda yosh” ekanini ta’kidlagan muallif o‘z xulosalarida Furqat asarlariga tayanadi. Shoirning ushbu yangi adabiyotning tamal toshini qo‘yganlardan ekanini alohida qayd etadi.

Major olimi Yanosh Ekman “Xorazm, qipchoq va chig‘atoy turkchasiga oid tadqiqotlar” nomli yirik asarida Turkiston jadidlik harakatiga Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O‘tar, Zoriy kabi shoirlarning ma’rifiy qarashlari asos bo‘lgani xususidagi muhim bir masalani o‘rtaga qo‘yadi. U bunday yozadi: “...Xivali shoir Avaz O‘tardan boshqa jadid adabiyotining dastlabki namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Zoriy kabi ho‘qandli shoirlardir”.

Xorijlik tadqiqotchilardan yana biri Adib Xolidning fikricha, jadidlikni muayyan sana bilan cheklash to‘g‘ri emas. Uning ta’kidlashicha, musulmon jamiyatini zamonaviy aloqa vositalari va muloqotning yangi shakllaridan foydalanish orqali isloh qilishga urinuvchi shaxslar “jadidlar” deb ataladi. Binobarin, Furqat va uning zamondoshlari xuddi shunga intilgani mutaxassislarga yaxshi ayon.

Ta’kidlash kerakki, Furqat va uning davradoshlari jadidlik deb atalgan va XX asr boshida millatimiz hayotining barcha – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarini isloh etishga bo‘lgan intilishlarni mujassam etgan ulkan harakatga zamin hozirlagan edi.

Bizningcha, Furqat va jadidlar qarashlaridagi mushtaraklik quyidagi masalalarda nisbatan aniqroq ko‘zga tashlanadi:

1. Mustamlaka siyosatiga nisbatan murosasizlik. Furqatning yuqorida tahlil etilgan “Munojoti musaddas”i, “Bo‘ldi” radifli muxammasi, “Begim” g‘azali va xorijda yozgan bir qancha asarlari, jadidlarning esa bu borada nainki ijodiy, hatto amaliy faoliyat bilan shug‘ullangani ushbu fikrni quvvatlaydi.

2. Zamonaviy ilmlarni egallashga targ‘ib etish, Ovrupa ta’lim tizimini joriy qilish orqali xalqimizning rivojlangan millatlar darajasida yuksalishi orzusi.


3. Matbuot, teatr kabi hodisalardan millatni uyg‘otishda minbar sifatida foydalanish. Furqatning “Turkiston viloyatining gazeti”da bosilgan asarlari, “Tarjimon”, “Sho‘ro” kabi jadid matbuotining nufuzli nashrlarida shoir asarlarining e’lon qilinishi, keyinchalik jadidlar tomonidan nashr etilgan milliy matbuot nashrlari buning yorqin dalilidir.

4. Millatning taraqqiy etishiga to‘siq bo‘layotgan illatlarni keskin tanqid etish. Bunday illatlar – o‘zaro nifoq va nizolar, ilm-ma’rifatga e’tiborsizlik, jaholat, ilm-fan taraqqiyotidan ortda qolish va hokazo...

Bu mulohazalar Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, o‘zidan keyingi avlodlarga ham kuchli ta’sir ko‘rsata olgan ulug‘ ijodkor, butun salohiyatini, iqtidorini Vatan va millat ravnaqi yo‘liga tikkan buyuk siymo ekani haqidagi haqqoniy ilmiy xulosa uchun asos bo‘la oladi.

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori,
professor

MUTOLAA



VATANDAN SO‘ZLAGAN “VATAN”

“Vatan” jurnali nashr etilishi mamlakatimiz matbuotida katta qadam bo‘ldi. Jurnalning har sonini mushtariylar intiq kutishmoqda. Boisi, unda ko‘tarilayotgan masalalar, aytilayotgan fikrlar dolzarb. Matbuotning qudrati ham shunda! Jurnalning 3-sonini o‘qiy turib, matbuotning kuchi, ta’sirini yana bir bor chuqur his qildim. Uning muqovasida Shayboniyxon aks etgan. Bunda ham ramziylik bordek go‘yo. Rasm pastida “O‘zbek davlatchiligining yirik namoyandasi, ma’rifatparvar hukmdor Muhammad Shayboniyxon” nomli jurnaldan o‘rin olgan maqola sarlavhasi turibdi. Shu surat-sarlavhaning o‘zi juda ko‘p narsani ochib bergandek. Tarixiy tushunmovchilikka oydinlik kiritilgandek go‘yo.

Kavkaz musulmonlari idorasi raisi shayxulislom Ollohshukur Poshshozodaning “Vatan” muxbiriga bergan “O‘zbekiston – doimo yuragimda” nomli intervyusida odamning dilida iliqlik uyg‘otadigan juda yaxshi fikrlar berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatovning “Mamlakatimiz IT-HUBga aylanmoqda” nomli maqolasida esa, so‘nggi yillarda yurtimizda ushbu sohaga qaratilayotgan e’tibor va erishilayotgan yutuqlar haqida so‘z boradi. Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjarning “Tamaddun poydevori ilm-fandir” sarlavhali maqolasi ham o‘quvchini bee’tibor qoldirmaydi. Siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Uyg‘onayotgan arslon” maqolasi haqiqiy siyosiy nazar bilan yozilgan. Unda mintaqaning geosiyosiy aktoriga aylanayotgan Yangi O‘zbekistonimizning dadil qadamlari, yuksalayotgan xalqaro imiji haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Shuningdek, nashrning ushbu sonidan Li Szigoning “Qadimiy ipak yo‘lining zamonaviy timsoli”, qozog‘istonlik olim Yerkin Baydarovning “Qozog‘iston – O‘zbekiston: Yangi taraqqiyot bosqichidagi munosabatlar”, siyosatshunos Emilbek Jo‘rayevning “Qirg‘iziston – O‘zbekiston: Ularning har biriga kuchli va farovon qo‘shni kerak” maqolalari o‘rin olgan. Ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Qozoq qarindoshlarimizg‘a ochiq xat”i, tarix fanlari doktori, professor Abdulhamid Anorboyevning “Namanganning Registoni”ga aylanayotgan Axsikent”, tarix fanlari nomzodi Baxtiyor Alimjonovning “Notugal davlat qurilishimi yoxud nihoyasiga yetkazilmagan konseptuallashuv?” maqolalari o‘quvchida iliq taassurot qoldiradi.

Shuningdek, jurnalist Husan Ermatovning “Xorazm suvoralari san’atning betakror durdonasi”, filologiya fanlari doktori Shomirza Turdimovning “Alp Go‘ro‘g‘li – zo‘r botir”, Gzavye Allezning “Pol Pellioning Turkistonga sayohati”, tarix fanlari nomzodi Nuryog‘di Toshovning “Til tarixidagi noyob hodisa”, tarix fanlari doktori Sergey Nikolayevich Abashinning “Kolonizatsiya va postkolonizatsiya: Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi”, filologiya fanlari nomzodi, mustaqil ekspert Abdulaziz Hakimiyning “Musulmonchilik” va sovet kishisi: Amalga oshmagan identiklikmi?”, tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabovning “Boymirza Hayit kim edi?”, moziyning unutilgan bitiklari rukni ostida professor Akbar Zamonovning “O‘zbek davlatchiligining yirik namoyandasi, ma’rifatparvar hukmdor Muhammad Shayboniyxon” kabi maqolalari va Shayboniyxon qalamiga mansub bitiklar, mashhur yozuvchi Nodar Dumbadzening “Hellados” nomli hikoyalarini ham mutolaa qilishingiz mumkin.

Maqolalarda Vatan tarixi va buguni, ichki va tashqi siyosat, san’at, adabiyot, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va erishilayotgan yutuqlar atroflicha yoritilgan. Mualliflar ham jamoatchilikka yaxshi tanish bo‘lgan o‘z sohasining taniqli kishilari. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu jurnal Vatan haqida so‘zlayotgan “Vatan”dir!

Zikrilla MAMATOV

XOTIRA

...Hozirda to‘rtta-beshta klip olib, bir yog‘i oyna-i jahonni, yana bir yog‘i ijtimoiy tarmoqlarni batangga keltirib, muhtasham imoratlari-yu eng so‘nggi rusumdagi ulovlarini ko‘z-ko‘z qilib, bema’ni, beta’miz qo‘shiqlari bilan yosh avlod ongini qadim mumtoz san’atimiz o‘zanlaridan chalg‘itib, na millatimiz, na qadriyatimiz mezonlariga to‘g‘ri kelmaydigan “bo‘tqamisol” nimarsalarga “xit” degan g‘alati yorliqni yopishtirgan “sahna yulduz”lari bolalab yotgan davrda bu insonning san’atkorlik maqomi, saxovatpeshaligi, kamtarin fe’li haqida yozsak kimlargadir g‘alat tuyular. Ammo, aynan shunday ulug‘ hofizlar yaratgan hayot va san’at maktabi mumtoz o‘zbek qo‘shiqchiligi darajasini belgilagan va bundan keyin ham belgilashi hech shubhasiz.



San’atda, saxovatda, samimiylikda benazir hofiz edi

To‘rt respublika – O‘zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog‘iston va Tatariston xalq artisti, davlat mukofoti sovrindori Otajon Xudoyshukurov bu yorug‘ olamda atigi ellik yil umr ko‘rdi va shu qisqa umrining deyarli qirq yilini sahnalarda o‘tkazdi.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan afsonaviy hofizning 80 yilligi o‘zi tug‘ilib o‘sgan, butun umri kechgan To‘rtko‘l shahrida nishonlandi. Xotira tadbirlari dasturida yosh ijodkorlar uchun tanlov o‘tkazilib, unda davlatimizning barcha viloyatlaridan mumtoz qo‘shiqchilikka ixlosi baland yosh ijrochilar qatnashdi. Tuman hokimligi binosida ustoz san’atkor ijodiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Ijod irmoqlari” ilmiy-amaliy anjumanida hofizning hayoti, ijod yo‘li, ko‘plarga ibratli ishlari haqida qahramonimizning zamondoshlari, hamkasblari, shogirdlari o‘z xotiralarini o‘rtoqlashdi.

Hozir yubiley tafsilotlariga to‘xtalmaymiz. Tantanalarni ommaviy axborot vositalari uzluksiz yoritdi, hali hamon tadbir lavhalari ijtimoiy tarmoqlarda aylanmoqda.

Shu o‘rinda hofiz surati-yu siyrati yanada aniq namoyon bo‘lmog‘i uchun gazetxonlarga o‘zimiz guvoh bo‘lganimiz, eshitganimiz va suratlar-u hujjatlarda saqlangan ma’lumotlardan bilganimizga asoslanib, ulug‘ san’atkorni baholi qudrat tasvirlashga harakat qilamiz. Bu bitiklarimiz daryodan bir irmoqdir. Zero hofiz tirikligidayoq “Uchinchi daryo” matlabiga loyiq ko‘rilgandi.

* * *

Hofizning singlisi Lola opa Ollashukurova eslaydilar: “Og‘amni Norinjon buva qabristoniga dafn qildik. Bu qabriston daryoning ikki qirg‘og‘ida yashovchi xorazmlik va qoraqalpoqlar eng ko‘p tashrif buyuradigan, ziyorat qiladigan muqaddas maskan.

Vafotidan keyin har payshanba kuni og‘am qabrini ziyorat qilardik. Bir kuni borsak notanish ayol og‘amning qabrini quchoqlab, sochlarini yulib yig‘layotgani ustidan chiqib, turgan joyimizda qotib qoldik. Bu ayol kim ekan, deb xayolimizga turli o‘ylar ham keldi...

Keyin ayol ko‘z yoshlarini tiya olmay og‘am bilan bog‘liq hikoyani so‘zlab berganida uning yig‘isiga biz ham qo‘shildik.

Og‘amni respublikaning barcha viloyatlariga to‘yga chaqirishardi. Qoraqalpog‘iston davlat filarmoniyasi qoshidagi “Amu to‘lqinlari” ansambli rahbari bo‘lsalar-da (bu lavozimga 28 yoshlarida ma’qul ko‘rilgan) vaqt topib, to‘y egalari iltimosini bajarishga harakat qilardilar. Og‘am Samarqandning lo‘lilar yashaydigan dahasiga ham ko‘p bora to‘ylarga taklif qilingan. Lo‘lilar to‘yiga boshqa xonandalar borishni istashmagan, sababi to‘y nihoyasi janjalsiz yakunlanmagan. Hatto ayrim xonandalar kaltak yeb qaytishgan.

Ular og‘amni g‘oyatda hurmat qilishgan.

Hamkasblari bilan yengil mashinada shunday to‘ylardan biriga borayotganida yo‘l bo‘yida yig‘lab o‘tirgan ayolni ko‘rib, mashinani to‘xtatishni so‘ragan va ayol nega yig‘layotgani bilan qiziqqan. Ayol yaqinda eri vafot etgani, uch yetim bolasi bilan qolgani, ro‘zg‘or yuritish og‘irligi, aksiga o‘zi farrosh bo‘lib ishlayotgan maktab direktori behuda bahonalar bilan maoshini yarmini ushlab qolayotgani, keyingi maoshgacha bolalarimga nima yediraman, deb kuyinib o‘tirganini aytgan. Og‘am unga dalda berib, yashash manzilini so‘rab, to‘yga ketganlar. To‘rt soat davom qilgan to‘yda mehmonlar og‘amga o‘sha vaqtda bir yengil mashina olishga yetadigan pul qistirishgan. (U vaqtlari hofizlar to‘ylarga “falon so‘m berasan”, deb shart qo‘yib borishmasdi, davrada mehmonlar qancha pul qistirsa shu xizmat haqi hisoblanardi).

Og‘am to‘ydan chiqib, o‘sha ayol uyini surishtirib topib borib, to‘yda tushgan barcha pullarni berib “Shu bolalaringiz to‘ylariga ayting, albatta, kelaman!” deb va’da ham bergan ekan.

“Og‘angiz bergan pulga uch bolamni oyoqqa qo‘ydim, katta o‘g‘lim bu yil institutni bitkazdi, qishda to‘yini qilsam, albatta, to‘yga chaqiraman, deb niyat qilgandim. Televizorda Otajon Xudoyshkurov vafot etgani haqidagi shumxabarni eshitib, hushimdan ayrildim. O‘n kun kasalxonada davolanib, mana so‘rab-surishtirib qabrini topdim!”, deydi ayol.

Og‘amning biz bilgan-bilmagan qanchadan-qancha shunday savobli ishlari bor”.

* * *

Zamondoshlari, yaqinlari va bunga guvoh bo‘lganlar eslaydilarki, hofiz ko‘p hollarda to‘yda mehmonlar ilingan pulning hammasini shu yerda yashovchi biror ehtiyojmand kishiga tufha qilgan. Ba’zida davrada o‘tirgan keksa san’atkorlardan birisi oldiga qo‘yib, fotihasini olib ketgan ekan.

...Qishloqlardan birida bo‘lgan to‘yda to‘rt soatga yaqin qo‘shiq aytib, mezbonlardan ruxsat so‘rab endi mashinasiga minayotgan vaqtida bir yigit salomlashadi va “Men to‘yda choy qaynatdim. Endi mazza qilib, qo‘shiq eshitaman desam siz ketyapsiz”, deydi. Hofiz torini g‘ilofidan olib, sozlaydi va shu yerda choy qaynatgan yigit uchun besh-oltita qo‘shiq aytadi. Bir zumda atrofiga tomoshabinlar to‘planadi. Ular bergan bir qiyiq pulni choychi yigitga uzatib “Rozi bo‘l, uka!” deydi...

* * *

O‘zbek futboli tarixida sharhlovchilar orasida “afsonaviy” rutbasiga ega yagona inson rahmatli Abror Imomxo‘jayev oyna-i jahondagi bir chiqishlarida Otajon Xudoyshukurovni xotirlayotib “Sherali Jo‘rayev bilan ikkisi “Paxtakor” futbol jamoasining bir yillik sarf-xarajatlarini ko‘targandilar”, deb shunchaki aytib o‘tadi. Bu gap ayrimlarning bu qulog‘idan kirib, u qulog‘idan chiqib ham ketdi. Sharhlovchi fikrini izohlab o‘tirmadi. Biz esa ozroq izoh berib o‘tamiz. Abror aka eslagan davr sovet davlatining inqirozi boshlangan zamonaga – 1980-yillar oxiriga to‘g‘ri keladi. Shu davrda barcha sohalarda depsinish va hatto ortga ketish kuzatilayotgandi. Davlat g‘aznasi bo‘shab qolganidan respublika faxri sanalgan futbol jamoasini moddiy qo‘llab-quvvatlashga mablag‘ topilmagan.

O‘sha davrda jamoada yuz nafardan ortiq odam ishlagan. Futbolchilar boshqa kasb egalariga qaraganda bir necha baravar ko‘proq maosh ham olishgan. Yana o‘yin natijalariga qarab salmoqligina mukofot pullari ham berilgan. Sobiq ittifoq oliy ligasida to‘p suradigan jamoa mavsumda hozirda mustaqil bo‘lgan 6 davlatning jamoalari bilan to‘p surardi. Mavsumda 17 marta o‘sha jamoalar bilan o‘ynash uchun uchoqda borib qaytishardi. Belgilangan o‘yindan bir kun oldin borish, mehmonxonada yashash, ovqatlanish va boshqa xarajatlar uchun oz mablag‘ ketmasdi. Yuzga yaqin kishining bir yillik maoshi, mukofot pullari, safar-u kiyim-kechaklar uchun hozirgi o‘lchovlarda taxminan besh yuz ming AQSh dollari miqdorida pul ketgan.

Ana endi ikki afsonaviy hofizning bir jamoaga cho‘zgan saxovat qo‘li qanchalik zalvorli bo‘lganini o‘zingiz tasavvur qilavering!

* * *

...To‘rtko‘l shahrining qibla tarafida, “Nukus – Toshkent” kattaulov yo‘lining ikki tomonida qator qo‘shqavatli imoratlar qurilgan. Bir-biridan muhtasham, ko‘rkam imoratlarga qarab havasingiz keladi. Buyuk hofizning uyi shu yerda ekanligini kimdandir so‘rab bilib olgan bo‘lsangiz, birinchi navbatda qatorasiga osmonga bo‘y cho‘zgan “saroy”lardan birisidir deb o‘ylaysiz. Axir hozir to‘rtta to‘yga borgan oddiy “yulduz”lar ham basma-basiga osmono‘par imoratlar qurishga zo‘r berishgan...

Yo‘l so‘raganingizda sizga ko‘rsatgan uyni ko‘rgach bir zumda “osmondan yerga tushasiz”. Otajon og‘a yashab o‘tgan uy shu ko‘chadagi eng kamtarini, eng oddiysi. Bu imoratni hofiz yigirma besh yoshida baland va chiroyli minoraga tushadi. Tub aholi bu minoraga “Otashminora” deb nom qo‘ygan. Shahardagi eng yirik jome’ masjidiga yondosh qurilgan minora-mezananing balandligi 53 metr. Mustahkam va chiroyli minora buyuk hofiz bergan mablag‘ hisobidan qad rostlagan.

Sarg‘ayib ketgan bir suratda soqollari o‘sgan, ust-boshi loyga bulg‘angan bir inson chelakda loy tashiyotgani aks etgan. Sinchiklab qarasangiz hofizni taniysiz. To‘rt respublika xalq artisti unvoni egasi bo‘lgan hofiz minora qurilishida boshdan-oyoq eng og‘ir – qora ishlarda ustalar bilan yonma-yon ishlagan.

* * *

San’at va adabiyot homiysi, ma’rifatparvar ma’mur Ne’matulla aka Xudoyberganov Ellikqal’a tumaniga hokim bo‘lgan yillari Bo‘ston shahrida hofiz nomida ulkan san’at saroyi qurilishiga bosh bo‘lgan. Tumanda Otajon Xudoyshukurov nomidagi san’at maktabi ham faoliyat yuritgan. Har ikki yilda bir bora, jami to‘qqiz marta, ulug‘ hofiz nomidagi respublika tanlovlari o‘tkazilib, ishtirokchilar orasidan qanchadan-qancha yetuk xonandalar yetishib chiqqan. Tanlov hakamlar hay’ati a’zolari orasida o‘zbek san’atining haqiqiy yulduzlarini – Munojot Yo‘lchiyeva, Muyassar Razzoqova, O‘lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov va boshqalarni muntazam ko‘rish mumkin edi.

Tanlovlardan birida O‘lmas Rasulovdan Otajon Xudoyshukurov ovozi darajasi haqida so‘raganimizda shunday degandi: “Agarda taqdir Otajon hofizni mendan oldin dunyoga keltirganida, men bola vaqtim u kishining “Suvora” ijrosi avj nuqtalarini eshitganimda ko‘zlarim hayrat-u ovozi qudratidan o‘z-o‘zidan ochilib ketgan bo‘lardi”.

* * *

Hofizning o‘rtamiyona xonada joylashgan ixchamgina uy-muzeyida saqlanayotgan ashyolar orasida o‘z qo‘li bilan yozgan she’rlari ham bor. Hozir hofiz o‘zi yozgan to‘qqizta she’rni mashhur qo‘shiqqa aylantirgani haqida aytmaymiz. Bizni hayratga solgani – hofizning husnixati. Bu qadar chiroyli husnixatga kam duch kelganmiz. Agar bu inson san’atni emas xattotlikni tanlaganida, hech shubhasiz, o‘z davrining eng mashhur xattotlaridan biri bo‘lardi.

Bu inson qanchalar iste’dodli bo‘lsa, shunchalar kamtar va kamsuqim ham edi. To‘rt respublika xalq artistining shahardagi mahallalarga torini bo‘yniga osib, velosipedda to‘yga borganiga ishonasizmi? Yoki shaharda tashkillashtirilgan tadbirlarga poyi piyoda kelganiga-chi?

Otajon Xudoyshukurov o‘zbek qo‘shiqchilik san’atida maktab yaratgan ijodkor. Bu ijod maktabi qo‘shiqsevarlar qalblarini Amu to‘lqinlaridek sokin-u qudratli ohanglari bilan oltmish besh yilki zabt etmoqda. Bu ijod maktabi asoschisining yashash tarzi, hayotiy tutumlaridan ko‘pchilik san’atkorlar ulgu olgan va olayotir...

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

YODNOMA

HAMID DALOVNI ESLAB

Olmoniyalik taniqli mutarjim Hamid Dalov O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sgan. 1977-yili Toshkent davlat universitetining tarix fakultetini tamomlagach, ko‘p yillar turli tashkilotlarda ishlagan. 1992-yilda xorijga ketgan va Olmoniyada tarix fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Vatandan yiroq bo‘lsa-da, u o‘z yurtining tashvishlari bilan yashab, ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Taniqli mutarjim O‘zbekistonda o‘tkazilgan ikkita xalqaro anjumanda (2018 va 2021-yillarda) faol qatnashgan. 2016-yili nashr qilingan “Boburnoma”ning olmoncha tarjimasidagi mavjud xato-kamchiliklarni tuzatib, qayta ishlagan va to‘ldirgan holda qayta chop etgan. Ushbu tuzatishlarda Bobur hayotiga oid ayrim ma’lumotlar, jumladan, Boburning nasl-nasabi mo‘g‘ullarga emas, turkiylarga borib taqalishiga oid tarixiy haqiqatni tiklagan va yevropalik olimlarning chalkash fikrlariga chek qo‘ygan.

Ma’lumki, “Boburnoma” dastlab Bobur aytib yozdirgan turkiydan fors tiliga, undan Erskin va Laydenlar tomonidan inglizchaga, 1810-yilda Julius Klapprot va 1828-yilda Kayzer Amadeus tomonidan olmonchaga o‘girilgan. Umuman, bu jahonshumul ahamiyatga molik nodir asar dunyoning qirqqa yaqin tillariga tarjima qilingan. Jumladan, tarjimon Volfgang Stammlar 1980-yilda asarni fransuzchadan olmon tiliga qayta tarjima qilgan. Ushbu tarjimalarni atroflicha o‘rgangan Hamid Dalov “Boburnoma”ni akademik Sabohat Azimjonova yaratgan qisqartirilgan variantidan olmon tiliga o‘girgan edi.

Kamina “Boburnoma”ning to‘rtinchi tarjimasiga qo‘l urilishi sababini so‘raganimda, Hamid aka shunday degandi: “Barcha oldingi tarjimalarning birontasi asliyatdan emas, vositachi fors, fransuz, ingliz va hatto italyan tilidan amalga oshirilgan. Shu bois “Boburnoma”ning milliy xosligiga, ayrim tarixiy hodisalarning talqiniga, ayniqsa, shoh va shoir Boburning o‘ziga xos bayon uslubiga jiddiy putur yetgan. Tarixchi sifatida men bunga befarq qarab turolmadim. Nuqsonlarni bartaraf qilish uchun “Boburnoma”ning Anette Beveridge xonim tomonidan inglizchaga o‘girilgan tarjimasining Haydarobod nashridan foydalandim”.

Tarjimon ish davomida o‘zbek bobur shunos va tarjimashunoslarining ilmiy ishlaridan, jumladan, professor G‘aybulla Salomov va Nematulloh Otajonov qalamiga mansub “Jahongashta “Boburnoma” nomli monografiyasidan ham unumli foydalangan. Ushbu tarjimaning yana bir diqqatga sazovor jihati, kitob nihoyasida muhim suratlar va mavzuga daxldor ilmiy matnlardan iborat so‘ngso‘z berilgan. “Boburnoma”ning Dalov tarjimasi esa 2022-yilda qayta nashr etilgan.

Hamid Dalovning olmon tilidagi “Quyosh chiqmoqda” va “Quyosh botmoqda” nomli she’riy to‘plamlarida ham O‘zbekiston tabiati, madaniyati, urf-odatlari, milliy qadriyatlari mohirona tasvirlangan. U O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy a’zoligiga qabul qilingan edi.

O‘zbek tili va adabiyoti, tarixi va madaniyatini xorijda mehr va sadoqat bilan targ‘ib qilayotgan, Pforzheimda yashab ijod etgan taniqli tarjimon, doktor Hamid Dalov yaqinda vafot etdi. Uning asarlari, amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlari yosh avlodga bebaho meros bo‘lib qoldi.

Xurram RAHIMOV,
Olmoniyadagi Olmon-O‘zbek ilmiy jamiyati raisi, professor

IBRAT

ZAMONAMIZ JADIDI

Adabiyotshunos olim Sirojiddin Ahmad faoliyatiga chizgilar



Turkistonda jadid davri adabiy jarayonini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Ustoz Ozod Sharafiddinov yirik adabiyotshunos olim Begali Qosimovni yaxshi ma’noda “so‘nggi jadid” deb atagan edi. Zotan, butun ilmiy faoliyatini jadid ma’rifatparvarligi tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan olim shaxsiyatida millat oydinlarining xarakterli jihatlari mujassam edi.

To‘g‘risini aytganda, bu professor Begali Qosimovga nisbatan xo‘b topib aytilgan o‘xshatish. Domlaning jadidlarga mengzalishi odamni mamnun qilardi, ammo nima uchundir nomdagi “so‘nggi” so‘zi biroz mulohazali, nazarimda. Shukrim, millat tarixini o‘rgangan va o‘rganayotgan olimlarimiz “so‘nggi” so‘zining ziddi o‘laroq jiddiy izlanishlar olib borishdi. O‘zlari ham jadidlar singari xulqlangan ulug‘ olimlar Erik Karimov, Boybo‘ta Do‘stqorayev, Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmad singari ustozlar “so‘nggi jadid” ijodiy yo‘lini uzaytirishga xizmat qilishdi.

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabida uyushtirilgan bir uchrashuvda yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad yig‘in ishtirokchilariga ustoz Sirojiddin Ahmadni “zamonamiz jadidi” deb tanishtirdi. Ko‘ngil birdan yorishib ketdi. Sababi, “so‘nggi” jadid tushunchasini mazmunan yangilagan “zamonamiz jadidi” atamasi o‘ta zakiylik bilan o‘rnida qo‘llangan edi. Haqiqatan ham Sirojiddin Ahmad chin ma’noda yarim asrdan ortiq ilmiy faoliyatini jadidlik tarixiga bag‘ishlagan olim. Begunoh qora ro‘yxatlarga tirkalib, shahid bo‘lgan insonlar ismini qayta tiklash, xotirasini abadiylashtirish, ularning yurt ozodligi yo‘lidagi xizmatini ko‘rsatish kabi savobli ishlarni ustoz xolis bajarmoqda. Kamtar va kamsuqum olimning ilmga katta da’vosi yo‘q. Barcha mehnatlari manfaatsiz, ta’masiz. Qilayotgan ishlarini esa muqaddas burch deb biladi. Muallif tomonidan nashrga tayyorlangan kitoblar jadid adabiyoti kutubxonasining bir qancha javonini to‘ldiradi. Ustozning jadidlik harakati haqidagi kitoblarini milliy durdona va eng boy xazina deb bilish mumkin.

Sirojiddin Ahmadning keyingi yillarda ketma-ket nashr qilinayotgan bir qator kitoblari ham “zamonamiz jadidi” tushunchasini kengroq anglashimizga yordam beradi. Ustoz tarixning sirli sahifalarini o‘zida jamlagan qo‘lyozmalarni sinchiklab o‘rgangan. Doimo birlamchi manbalarga tayanib ish ko‘rgan olim tagmatn sirlarini o‘ta noziklik bilan ilg‘ay oladi. Zahmatkash olim Turkiston tarixining eng murakkab davrini o‘rganishga butun umrini bag‘ishladi. Millat tarixidagi qonli sahifalar va yurt oydinlari faoliyatini yoritish, ma’rifatparvarlar hayotini chin mazmun-mohiyati bilan ochib berishga o‘zini mas’ul sanadi.

Olimning ilmi amali bilan mutanosib bo‘lsa, soz ustiga soz. Ustoz chin ma’nodagi ziyoli, kamtar, amalini so‘ziga sozlagan inson. Ustoz kitob tiklashda ham o‘ziga xos yo‘ldan boradi. “Milliy hurriyat adabiyoti” (2018) nomli kitob tuzilishi va kompozitsiyasi bilan an’anaviy mundarijadan farqlanib, shakldagi bunday ayirma mazmunda ham aksini topgan. Kitob davr muammolari negizida tarixiy-adabiy jarayonni bo‘y-basti bilan ko‘rsatib beradi. Undagi tarixiy voqea va hodisalar o‘tgan asrning 20-yillari matbuot materiallari, shu kungacha xalq ko‘zidan maxfiy tutilgan va oshkora manbalar asosida yozilgan. Kitob mundarijasining o‘zi e’tiborni tortadi: “Muxtoriyat va adabiyot”, “Milliy qarama-qarshi turish adabiyoti”, “G‘orat yoxud harbiy kommunizm davri adabiyoti”. To‘g‘ri, bo‘limlarning nomida hali muomalaga kiritilmagan o‘rinlar talaygina, ammo yondashuvning o‘ziyoq o‘quvchida ayricha tasavvur uyg‘otadi.

Olimning Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sattor Jabbor, Tohir Shokir ijodi bilan bog‘liq tadqiqotlari qomusiy xarakterga ega bo‘lib, kemtiklarni to‘ldiruvchi nodir manba sifatida ahamiyatlidir. Muallifning “Ikki imperiya asoratida” (2018) nomli ikki jilddan iborat kitobida Turkiston mustaqilligi yo‘lida faoliyat yuritgan yurt qahramonlari haqida ma’lumot beriladi. Dukchi Eshon, Is’hoqxon Ibrat, Abdurahmon Sayyoh, Abduvohid qori Abduraufqoriyev, Zahriddin A’lam Qosimov (Cho‘lponning tog‘asi) kabi insonlarning Turkiston ozodligi yo‘lida qilgan xizmatlari birlamchi manbalar asosida yoritib beriladi. Muallif asl nashrlarga tayangan holda yurt istiqloli yo‘lida kurash olib borgan bir yarim mingdan ziyod diniy ulamolarning “Qizil terror” asosida qatl qilinganligini ko‘rsatadi, ularni nomma-nom taqdim qiladi.

Kitobda ulamolarning millat ma’naviy va madaniy ravnaqi yo‘lida olib borgan xizmatlari ochib beriladi. Bosqinchilar yurtda dinga bo‘lgan ehtirom va e’tiqodni ko‘rib, avval diniy ulamolarni yo‘q qilish va ularni badnom etishni maqsad qiladi. Zahriddin A’lamning quyidagi fikrlari ham bizga ba’zi narsalarni oydinlashtiradi. “...Nimadandir butun Sharq ulusidan ko‘z yumub, qo‘l siltaydir. O‘rtoq unday emas, bechora Sharqning o‘ziga yarasha an’anasi bor: moddiy yoqda oqsag‘on bo‘lsa, ma’naviy va axloqiyotiga kunbotar ustodlaringiz ham insof qilur... So‘ng zamon mutaassiblari ul fanlarni chiqorib, madrasalarni badnom qilg‘on ekan, endi qaytadan tiriltirib, Sharqning o‘z madaniyatini to‘plab, yetishmaganiga G‘arbdan qo‘shsak, xalqni-da qochirmag‘on bo‘lurmiz. Xalq bilan birlikda madaniylashgan yaponlar, madrasadan qo‘l siltab taraqqiy izlagan usmonlilardan qancha yuqoriga chiqdi...”. Ustoz jadidlik g‘oyasini diniy va milliy qayg‘u, deb biladi. Uning izlanishlarida mana shu g‘oya bir butunlikda bo‘y ko‘rsatadi.

Olim tomonidan Tohir Shokirning “Tanlangan asarlar (Turkistonda turk mafkurasi va Alisher Navoiy)” (1922) nomli kitobi nashrga tayyorlanib, chop etildi. Muallif so‘zboshida Tohir Shokir haqida qisqacha ma’lumot hamda tanlangan maqolalari borasida sharh berib o‘tadi. Tohir Shokir hazrat Navoiy ijodiga bag‘ishlangan maqolasida ikki muammoni ochib berishni maqsad qiladi:

1. Turkistonda turk mafkurasi.
2. Alisher Navoiy ijodi va turkiy tafakkur masalasi.



Olim Navoiy fenomenini ochib berishda turkiy tafakkurning qadim ildizlariga, turk ulusi va ruhi masalasi kesimida Turkiston tarixiga nazar soladi. Turkistondagi turklikning Navoiygacha bo‘lgan madaniy va adabiy davrining yirik polotnosini yaratadi. Olim “Qutadg‘u bilig”ni “milliy ruh va milliy tafakkurning timsoli”, deya baholab, turkiy qavm arab va fors tili bosimi ostida o‘z ruhidan uzoqlashib ketayotgan pallada Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviyning “kurash bayrog‘ini” ko‘tarib chiqqaniga ishora qiladi. Shoir butun faoliyati davomida milliy mafkurani shakllantirishga, “turk ruhi, turk rangi, turk fikr adabiyoti”ni “yakqalam” qilishga intildi va muvaffaqiyat qozondi. “Iymoni zaiflashib ketgan saroy doirasi miyalarini tozalab to‘g‘ri milliy yo‘lg‘a solmoqchi” bo‘ldi va maqsadiga yetdi.

Sirojiddin Ahmadning Munavvar qori Abdurashidxonov ijodiga bag‘ishlangan “Men sendamen” (2023) kitobi ham jiddiy tadqiqot sanaladi. Munavvar qori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi us-soniy”, “Yer yuzi”, “Havoyiji diniya”, “O‘zbekcha til saboqligi” kitoblari, xotira yozishmalari va turli mavzudagi publitsistik maqolalari millat ma’naviy merosining tarkibiy qismidir. “To‘plamdagi xotiralar uning mahbuslik davrida, uzlatda vahshiyona qiynoqlar ostida yozilgan. Eski o‘zbek imlosi dastxatni kirill harfiga o‘girib, ayrim arzimas tahrir bilan e’lon qilinmoqda. Zero, uning qanday sharoitda yozilgani sezilib tursin”.

Kitobda avval e’lon qilinmagan maqolalar, xotira va nutqlar, Munavvar qorining majburiyat yuzasidan xorijda yashab qolgan shogirdlarining yozishmalari ilova qilingan. To‘plamda adabiyotshunoslikka oid mutlaqo yangi ma’lumotlar beriladi. Xususan, Hamza va Munavvar qori maktublarini o‘rganish orqali ko‘p faktlarni bilish mumkin. Hamza Munavvar qorini o‘ziga “pir” deb biladi. 1915-yil oktyabr-noyabr oylarida yozilgan maktublarda Hamzaning “Feruzaxonim” nomli nasriy asari borligi aytiladi. Munavvar qorining Hamzaga ushbu asar yuzasidan tavsiyalardan iborat yo‘llagan maktubidan parcha keltirib, uning nozik didli munaqqid ekanligini tasdiqlaydi. Sirojiddin Ahmad “Feruzaxonim” Hamzaning taqdiri noma’lum romanidir, buni topish va yanada aniqlik kiritish hamzashunoslarga havola”, degan mulohazani o‘rtaga tashlaydi. Fikrlarini asoslash uchun bir qancha faktlarni keltirib o‘tadi. Munavvar qorining maktubidagi *“...chunki romanga (ta’kid bizniki – **S.A.**) ruh kiritadurg‘on va o‘quvchini qiziqsindiradurg‘on o‘rinlari shul...”* so‘zlari ham bunga dalil. Munavvar qori Hamzani shogird sifatida tarbiyalashga intilgani, uning ijodkor sifatida unib-o‘sishi uchun xolis takliflar berganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Muallif xotiralarni tayyorlashda noyob arxiv materiallaridan unumli foydalangan. Necha yillarki arxivda qog‘oz changlari va gardlari orasidan haqiqat atalmish nurni qidirayotgan olim zaxirasida millat ma’naviyati xazinasini to‘ldiradigan hali ko‘p ma’lumotlar bor. Buni ustoz bilan qilingan o‘zaro suhbatlar tasdiqlaydi. Sirojiddin Ahmad chin ma’nodagi zamonamiz jadididir. Olimning Turkiston tarixi va jadidlarning ijtimoiy-ma’naviy harakatlarini yoritib berishga qaratilgan asarlari bilan tanishish har bir o‘zbek ziyolisi uchun manfaatlidir.

Sanobar TO‘LAGANOVA,
filologiya fanlari doktori

HAYOTIY HIKOYA

XIZMATKOR



Avval o‘zimni tanishtirsam.

Ismim – Charos. Oilada uchinchi qizman. Opalarim erta turmushga chiqqach, ota-onam qudalardan kechirim so‘rayverib, yalinaverib, yuragi bezillab qoldi chog‘i, kelayotgan sovchilarga rad javobini bera boshladilar. Erta turmushga chiqqan opalarimning uquvsizligi turtki bo‘ldimi, meni o‘qitmoq istadilar. Avvaliga ikki yil o‘qishga kirolmadim, uchinchi urinishda talaba bo‘ldim. Ochig‘i, talabaligim ham oson bo‘lmadi. Ota-onam u maoshdan bu maoshgacha amal-taqal qilib yashaydigan ishchilar bo‘lgani bois, kontrakt pulimni o‘zim topishim kerak edi. Buning ustiga opalarimning to‘yi, sarpolari, keyinchalik beshik to‘ylar uchun olingan qarz va kreditlar oilamizni jar yoqasiga olib borib qo‘ygandi.

Otam bechora o‘z tengdoshlaridan ancha kech uylangan, yonida suyanchig‘i yo‘q edi. Ukam hali maktabda o‘qiydi.

Darsdan so‘ng ish qidirdim. Toshkentda ish ko‘p, hech kim och qolmaydi, ammo menga maoshi yaxshi ish kerak edi. Ovozim chiroyli, buning ustiga o‘qishga kiraman deb rus, ingliz tillarini yaxshi o‘rganganim uchun o‘zimga munosib ish izlay boshladim.

Yaxshigina bir firmaga operator bo‘lib ishga joylashdim. Maoshim ota-onamnikidan ko‘p edi. Ham o‘qish, ham ish, ham uy yumushlari orasida yugurib yuraverib, to‘rt yil o‘tganini ham sezmay qoldim.

Bu yillar davomida martabam ham, maoshim ham oshdi. Birgalashib, qarzlardan ham qutuldik. Endi kaminaga kelayotgan sovchilarning soni ko‘payib qolgandi.

– Qaynonamga qul bo‘lmayman! – O‘zimga qo‘ygan birinchi talabim shu edi. – Oylik maoshimni o‘zim tasarruf etaman. Turmush o‘rtog‘im bilan alohida yashayman.

Opalarim itoatkor kelinlar bo‘lgani bois doim hayotidan norizo, yig‘lab onamga dardini aytardi, men endi bunday hayotga qarshi isyon qilayotgandim.

Yaxshigina firmada ishlaganim bois o‘zimga oro berishni ham o‘rniga qo‘yardim.

Bir kuni ishxonamizga bir yigit keldi. Ish yuzasidan rasmiy muloqotda bo‘ldim. Keyin yana keldi. Uchinchi safar kaminaga shirinliklar olib keldi. Hammasi shundan boshlandi.

U uylanmoqchi ekanligini aytdi.

– Sizni ilk ko‘rganimdayoq shu qiz meniki bo‘ladi, deganman, – dedi.

Bir-ikki kun o‘ylab javob berishimni aytdim. Bir haftadan keyin esa unga ochig‘ini aytdim.

– Menga uylansangiz, alohida yashaymiz. Men oilada xizmatkor bo‘lmayman.

Yigit biroz sukut qilib, keyin menga emas, men suyanib turgan baqaterakning yashnab turgan yam-yashil barglariga tikilib so‘z boshladi:

– Yolg‘iz onamdan boshqa hech kimim yo‘q. Dadam yoshligimda vafot etgach, onam meni deb qayta turmushga chiqmadilar. Endi ularni yolg‘iz tashlab ketish noinsoflik bo‘ladi. Ammo sizdan ham kecholmayman. Siz avval onam bilan bitta gaplashing, balki, kelishib yashab ketarsizlar.

Indamadim.

Yigit baribir sovchilarni jo‘natdi. Ota-onamga ma’qul kelgani uchunmi, o‘zim ham rozilik berdim.

O‘z-o‘zimga so‘z bergandim: “Men qul bo‘lmayman!”

To‘ydan keyin bir-ikki kun yelib-yugurib xizmat qilish o‘zimga ham qiziq bo‘ldi. Mehmonlar oldiga choy olib kirish, salom qilish, yosh bolachalarga dastro‘mol tutqazish...

O‘sha kuni tongda boshimga harir parda tashlab salom qilgani chiqdim. Olis-yaqindan kelgan mehmonlar tarqagan. Qaynonam dasturxon tuzab, deraza oldida o‘ychan o‘tirgan ekan.

Egilib salom qildim. Keyin yuzimdagi to‘rli yopinchiqni olib:

– Assalomu alaykum, – dedim. Ayol to‘lisha boshlagan, yuzlari oppoq, hali yoshlik tarovatini yo‘qotmagan edi. Tabassum bilan alik oldi.

– Keling, bolam, – dedi bag‘riga bosib. Quchog‘i issiq, yoqimli edi.

Choy quydim, chin yurakdan. Ta’zim bilan uzatdim, chin yurakdan. Keyin birga kechki taom tayyorladik. Yordam berdim, chin yurakdan. Bir oyda yangi oilamni shunchalik yaxshi ko‘rib qoldimki...

Oylik maoshimni olgan kunim uni qaynonamga berdim. Chin yurakdan. Olib, duo qildilar, keyin o‘zimga qaytarib berdilar.

– O‘zingiz istagan narsangizni oling. Bu – sizning pulingiz.

Men asta-sekin shu oilaga muhabbat qo‘ydim. Ochig‘i, o‘z oilamdan qulay edi yangi oilam. Ota uyimda kunda-kunora ko‘z yoshini oqizib keladigan opalarim va jiyanlarimdan ortgan pullarni o‘zimga ishlatardim, shu bilan birga uydagi hamma yumush mening gardanimda edi.

Bu yerda qaynonam tengma-teng yordam berardi. Opalarim aytgan xizmatkorlik yo‘q edi.

Choy damlasam, o‘zim ham ichaman, hovli-joylarni supursam, shu joyda o‘zim ham yashayman. Birin-ketin farzandlarim dunyoga keldi.

Qaynonam yonimda turdilar. Hali novvot choy ichirgan, belimni silagan...

Birinchi farzandimni dunyoga keltirgan kunim, chaqaloqni ilk bor qo‘limga olar ekanman, hamshira bir gap aytib qoldi.

– Onangiz ertalabgacha deraza tagida yurib chiqdi. – Keyin tashqariga qarab ovozini balandlatdi. – Voy, ana, haliyam ketmabdilar!

Bu onam emas, qaynonam edi!

O‘sha kuni xushxabarni eshitgan qaynonam uyga borib atala qilib keldi.

Ketma-ket tug‘ilgan farzandlarimni mehr bilan parvarish qildilar.

Bolalarim katta bo‘lib qoldi. Ota-onamni ko‘rgani borsam ham, o‘z uyimga – oyijonimning oldiga oshiqaman.

Keyingi paytlarda turmush o‘rtog‘im o‘zgarib qoldi. Yuragim nimanidir sezib, qaynonamga yorildim.

Tongda shoshib ishga ketayotgan o‘g‘lini to‘xtatgan qaynonam birinchi marta ovozini baland ko‘tarib dedi:

– Bolam, men bir narsalarni sezib yuribman. Agar kelinimga xiyonat qilsang yoki yana bitta oila qurmoqchi bo‘lib harakatda yurgan bo‘lsang, ikki qulog‘ing bilan eshitib ol, kechirmayman, seni oq qilaman!

Qo‘rqib ketdim. Turmush o‘rtog‘im ham qaltirab ketdi. Ketayotgan joyidan qaytib, onasini quchib oldi.

– Men tushundim, oyi, faqat gapingizni qaytarib oling.

Hammasi iziga tushib ketdi.

To‘rtta bolamni qaynonamning yordami bilan katta qildim. Bolalarim kasal bo‘lsa, qo‘shilib yugurdilar, yutug‘idan mendan ko‘p quvondilar.

Mana, o‘zim kelin olish arafasidaman. Endi o‘ylab ko‘rsam, men emas, aslida, qaynonam xizmatkor bo‘libdi.

Bugungi to‘kin, farovon, tinch hayotim ularning sog‘ligi, yoshligi, mehnati evaziga bino bo‘libdi.

Yana yozardim-u, oyijonim chaqiryaptilar.

– Charosxon, yuring bolam, o‘rtog‘imning nevarasiga sovchilikka borib kelamiz!

Xudo hammamizga insof bersin!

Feruza SOLIXO‘JAYEVA

TARIX VA TAQDIR

FIDOYI MA’RIFATPARVARNING ACHCHIQ QISMATI

Yunusjon Og‘aliqov 1884-yil 10-yanvarda Qo‘qon shahrida tavallud topgan. Uning otasi Ho‘qandi latifning taniqli do‘kondorlaridan biri edi. Og‘aliq atamasi esa bir vaqtlar xonlik zamonida bobolarining egallagan lavozimidan qolgandi. Yunusjon Qo‘qon shahridagi maktab va madrasalarda o‘qib, ilm tahsil qildi. So‘ng ota kasbi bo‘lgan savdo bilan shug‘ullanib, el nazaridagi saxiy boylar safidan joy oldi. Mintaqada jadid taraqqiyparvarlik g‘oyalarining tarqalishi ortidan Yunusjon hoji ham bu harakat ishtirokchilarining yelkadoshi bo‘ldi. Jadid maktablari va muallimlarini doimiy ravishda moddiy va ma’naviy tomondan qo‘llab-quvvatladi.



O‘tirganlar (o‘ngdan): 1. Abdulla Rahmat 2. Sulton Saydalin 3. Ashurali Zohiriy 4. Elbek 5. Cho‘lpon 6. G‘ozi Yunus 7. Y.Og‘aliq 8. N.Ziyo (mudir). 1924-yil.

Tatar diyorlarida chop etilgan jadid gazeta-jurnallarining Farg‘ona vodiysiga yetib kelishini ta’minladi. Zohiriy, Abduvahhob Ibodiy kabi muallimlarning Qrim, Ufa, Orenburg shaharlariga ilmiy-ijodiy safarlarini tashkillashtirdi. O‘zi esa “Tarjimon”ga muntazam Turkistondagi ijtimoiy-madaniy hayot, jadid maktablarining ahvoli, tarixi haqida maqolalar yuborib turdi.

Yunusjon hoji Og‘aliqov 1916-yil mardikorlikka qarshi xalq qo‘zg‘oloni vaqtida aholi tomonida bo‘ldi. 1917-yil mart oyidan “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi sifatida siyosiy harakatlarga bosh qo‘shdi. Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati hukumati tadbirlarida faol ishtirok etdi. Muxtoriyatning nashri bo‘lgan “El bayrog‘i” gazetasini tarqatish va targ‘ib qilishga mas’ul bo‘ldi.

Yunusjon hoji Og‘aliqov Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgach ham o‘zining istiqlol orzusidan voz kechmadi. Qo‘qon shahrida qolib milliy istiqlol uchun qo‘liga qurol tutib jangga kirgan insonlarni qo‘llab-quvvatladi. 1921-22-yillarda do‘sti Ashurali Zohiriy texnik muharrir bo‘lgan “Farg‘ona” gazetasida ekspeditor sifatida ish olib bordi. Ayni paytda “Ko‘mak”, “Nashri maorif” kabi ma’rifiy jamiyatlar tadbirlarida faol ishtirok etdi. O‘zi kabi davlatmand insonlardan pul yig‘ib, ko‘plab yoshlarning xorij va markaziy Rossiya shaharlarida joylashgan ilm dargohlarida ta’lim olishlari uchun yordam qo‘lini cho‘zdi. Biroq sho‘ro hukumati mustahkamlanib borishi bilan Yunusjon hoji Og‘aliqov kabi insonlarning boshiga turli sinovlar kela boshladi. 1926-yil aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi degan ayblov bilan qamoqqa olinib, 6 yilga mehnat tuzatish lageriga hukm etiladi. Yunusjon Og‘aliqov jazoning 3 yilini Kompirmat okrugida, 3 yilini Orenburg shahrida o‘taydi. So‘ng bir muddat Chimkentda yashab, 1932-yilda ona shahri Qo‘qonga qaytib keladi.

Yunusjon hoji Og‘aliqov 1935–37-yillar Qo‘qonda Ashurali Zohiriy, Erkin Nosir, Yaqub Omon bilan aloqalarini tiklaydi. O‘zbekiston davlat nashriyotiga tegishli kitob savdosi do‘koni mudiri sifatida ish olib bora boshlaydi. Yunusjon hoji Og‘aliqov sovetlarning qanchalik razolatga botganini, sho‘ro hokimiyatiga qarshi chiqqan har qanday kuchni xohlagan yo‘l bilan mahv etishi mumkinligini o‘zining taqdirida ko‘rdi. Shuning uchun oilasi va yaqinlari kelajagidan xavotirda bo‘lib, imkon qadar o‘zini ko‘rsatmaslikka intildi. Biroq u millat va xalq manfaatiga zarar keltiradigan har qanday qilmish oldida tilini tiya olmadi. Qo‘qon shahridagi sovet qurilishlarini kuzatar ekan: *“Bu hech qanday ta’mir emas, sovetlar madrasalarimizni bir-bir yiqayaptilar. Yaqinda Eski Qo‘qondan hech narsa qolmaydi. Xalqqa Eski shaharni butunlay unuttiradilar. Shu bahonada qadimiy binolarimizni yo‘q qilib, milliy arxitekturamizni, umuman olganda esa bular bizning tariximizni yo‘q qilmoqchilar”,* deydi.

Albatta, bu gaplar uning yoniga kiritilgan maxsus xufyalar tomonidan oqizmay-tomizmay kerakli tashkilotga yetkazib turilgan.

1937-yil 21-avgust kuni bitilgan order asosida Yunusjon hoji Og‘aliqov yana hibsga olindi. Qo‘qon shahri, Hurriyat mahallasida joylashgan xonadonidan deyarli hech narsa topilmadi. Turmush o‘rtog‘i Faxriya Dadaboyeva ikki farzandi bilan uning ortidan zor yig‘laganicha qoldi. Yunusjon hoji o‘ziga qilinayotgan bo‘htonlarni har qanday holatda ham tan olmasligini ma’lum qildi. Shundan so‘ng sovet tergovchilari uni tinch qo‘ydi va boshqalarning ko‘rsatmalarini olishga jon-jahdi bilan kirishdi.

1937-yil 26-avgust kuni guvoh sifatida jalb qilingan kishilardan biri so‘roqda 1936-yil Yunusjon hoji Og‘aliqov o‘zining do‘konida “...agar bizning yaxshi tashkilotlarimiz bo‘lganida xonliklarimizni chor Rossiyasi bosib ololmas edi”, 1937-yil esa do‘konida Ashurali Zohiriy, Soliyev davrasida “...Sovetlar so‘z va matbuot erkinligini bermaydilar. Chor imperiyasi davrida ham bundan yaxshiroq edi. Kolxozda non yo‘q, lekin aroq dengiz bo‘lib yotibdi”, degani va Akbar Islomovning qamoqqa olinganidan ularning barchasi xafa bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi.

1937-yil 20-noyabr kuni Yunusjon hoji Og‘aliqov o‘ziga qo‘yilgan barcha ayblovlarni rad etadi. Biroq 1937-yil 21-noyabr kuni O‘zSSR NKVD huzuridagi mash’um “uchlik” Yunusjon hoji Og‘aliqov ishini ko‘rib, uni oliy jazoga hukm qiladi va bu noxolis hukm 1937-yil 18-dekabr kuni Qo‘qon shahrida joylashgan maxsus obyektda amalga oshiriladi.

1937-yil 15-noyabr kuni qahramonimizning akasi Ne’matjon hoji Og‘aliqov ham qamoqqa olinadi. 1877-yil tug‘ilgan 62 yoshli Ne’matjon Og‘aliqovga dindor, Turkiston Muxtoriyatida ishtirok etgan deb, O‘zSSR JKning 66-moddasi, ya’ni aksilinqilobiy tashviqot ayblovi qo‘yiladi. Oradan olti kun o‘tmasdan mash’um “uchlik” yig‘ini 1937-yil 21-noyabr kuni hech bir dalil, isbot keltirmasdan uni 10 yil muddatga mehnat tuzatish lageriga hukm qiladi.

1957-yil 28-yanvar kuni O‘zSSR Oliy sudi tomonidan Yunusjon hoji va Ne’matjon hoji Og‘aliqovlar oqlandi. Biroq bu gal ham xushxabarni avlodlariga yetkazish masalasi o‘sha paytda hech kimning aqliga kelmadi...

Zamonlar o‘tdi. Qo‘qonlik mashhur jadid muallimi Muhammadjon Xoliqiyning farzandi, shifokor va shoir Midhatjon aka otasi va uning safdoshlariga bag‘ishlangan “Avlodlar ehtiromi” dostonida ularning achchiq qismatini afsus, nadomat bilan aks ettiradi.

Bahrom IRZAYEV,
Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Humoyiddin Yo‘ldoshqoriyev – 1896-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Sobiq yirik savdogar. Fuqarolar urushidan keyin Turkiyaga kelgan. “Nashri Maorif” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Qamoqqa olinishi paytida artelda sex mudiri bo‘lib ishlagan. Aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy xarakterdagi targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlariga nisbatan hamdardlik bildirganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi qo‘llanilib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 4-oktyabrdan hisoblangan.

A’zamjon Ahmadjonov – 1886-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” millatchi tashkilot ishtirokchisi bo‘lgan, quloqqa tortilgan. Qamoqqa olingan vaqtda O‘zbekiston meva-sabzavot magazini mudiri bo‘lgan. Germaniya “Yurgen” firmasi a’zolari bilan yaqindan aloqada bo‘lganlikda, hokimiyat va partiyaga qarshi o‘z atrofidagilarga doimiy ravishda norozilik ohangidagi fikrlarni tarqatganlikda ayblanib, mol-mulki musodara qilinib, o‘zi otuvga hukm etilgan.

Mukarram Abdullayev – 1890-yili Voroshilov rayoni Xonabod qishlog‘ida tug‘ilgan. 1920-yili aksilinqilobiy tashkilot “Sho‘royi Islom”ga kirgan. Qamoqqa olinganda kolxoz a’zosi bo‘lgan. Paxta terimi va paxta topshirish bo‘yicha davlat rejasini buzganlikda, SSSRda ocharchilik to‘g‘risida ig‘vo, mish-mishlar tarqatganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 20-oktyabrdan hisoblangan.

Yo‘lchiboy Toshmatov – 1882-yili Stalin rayoni Ro‘zi mahallasida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi bo‘lgan. Qamoqqa olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lganlikda, tez orada sovet hokimiyati yo‘q bo‘lishi to‘g‘risida ig‘vo tarqatganlikda ayblangan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asosan 8 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 27-noyabrdan hisoblangan.

Mulla Turg‘un Ibrohimov – O‘zSSR birlashgan qishloq fuqarosi, quloqqa tortilgan. Hibsga olingan vaqtda kolxoz a’zosi bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lganlikda, doimiy ravishda kolxozga qarshi targ‘ibot olib borganlikda, taraqqiychilar bilan aloqa o‘rnatganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 1-dekabrdan hisoblangan.

Qilich Abdullayev – 1900-yili Behbudiy shahrida tug‘ilgan. O‘tmishda Kerki bekligida xizmat qilgan, partiyadan o‘chirilgan. Qamoqqa olingan paytda O‘zkombinatda ishlayotgan bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Bosmachilarni qurol bilan ta’minlab turganlikda va aksilinqilobiy tashkilotning faol a’zosi, tashkilot yig‘ilishlarida sovet hokimiyati bilan kurashish masalalari, tizimli ravishda mag‘lubiyatchilik aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asosan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 13-sentyabrdan hisoblangan.

Hojimurot qori Sobirov – 1880-yilda Shofirkon rayonida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-modda 1-bandi va 67-moddasi bilan bosmachilik guruhi ishtirokchisi sifatida kengashlarda doimiy va tizimli ravishda aksilinqilobiy faoliyat olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 27-noyabrdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

JADIDLIK HARAKATIDA TIL MASALALARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Ayni jarayonlar sabab grammatikaga oid qator asarlar yaratildi.

Ona tili darsliklarining milliy xarakterga ega emasligi, o‘qitishdagi noqulayliklar sababli o‘tgan asrning 20-yillariga kelib, matbuotda Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnunning o‘zbek tilining tovushlar tizimi, morfosintaktik hodisalar yuzasidan maqolalari e’lon qilina boshlandi. Bu maqolalarni o‘zbek tili tabiatini yoritishga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlar deyish mumkin.

O‘rta Osiyoda birinchi marta o‘zbek tilida tovush usulida xat-savod o‘rgatish ishiga toshkentlik Saidrasul Saidazizov kirishib, mazkur usulda yaratgan kitobini “Ustodi avval” deb nomlagan va bu alifbe-darslik 1902-yildan boshlab har yili nashr qilinib turgan.

XX asrning 20-yillarida va 30-yillar boshida hozirgi o‘zbek tili imlosining nazariy asoslarini ishlashda, o‘sha davr maktablariga mo‘ljallangan darslik va qo‘llanmalarni yaratishda Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti, keyinchalik uning a’zolari ishtirokida O‘zmaorifqo‘m qoshida tuzilgan O‘zbek bilim hay’ati, O‘zbek yangi alifbo markaziy qo‘mitasi, Til-termin davlat qo‘mitasi singari tashkilotlar olib borgan ishlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularda faoliyat ko‘rsatgan bir qator ma’rifatparvarlar tashabbusi bilan turli fan sohalariga oid o‘nlab darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, lug‘atlar yaratildi.

O‘tgan asrning 20–30-yillarida “Imlo qoidalari” joriy etilishi munosabati bilan Ashurali Zohiriy o‘zbek tilshunosligiga



bosh harf bilan yozish qoidalarini olib kirdi. Arabcha harf termini dastlab o‘zbek tilida surat deyilgan va arab alifbosidagi harflarning yozuvda hosil qiladigan shakli nazarda tutilgan.

O‘zbek tili bo‘yicha tuzilgan ilk saboqlik yoki qo‘llanmalar boshqa til egalari tomonidan yozilgan bo‘lib, ularda o‘zbek tiliga xos hodisalar o‘zga tillar qonuniyatlari asosida izohlangan edi. Bu borada arab, tatar, turk va rus tillari grammatikalaridan foydalanilgani sir emas. Dastlabki milliy grammatikamiz mualliflari ham, foydalanish uchun boshqa tadqiqot yoki qo‘llanmalar bo‘lmagani sababli, mazkur tillar grammatikalaridan foydalangan edi. Bu davrda o‘zbek tilini ilmiy o‘rganish ishlari “Chig‘atoy gurungi” tashkilotida boshlanib, Fitratning “Sarf” va “Nahv” asarlari mazkur sa’y-harakatlarning ilk natijasi o‘laroq 1925-yilda nashr etilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ilm-fanning darajasiga muvofiq yaratilgan darslik va qo‘llanmalarda asosiy e’tibor grammatika masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, tilshunoslikning boshqa sohalariga yo‘l-yo‘lakay to‘xtalingan edi. Masalan, imlo muammolari va qoidalari dastlab yaratilgan darsliklarda juda qisqa berilgan.

Alifbo, o‘zbek alifbosi masalalari 1926-yilda boshlangan bo‘lib, shu yili 27–29-avgustda Yangi alifbo qo‘mitasi va Ilmiy markaz til mutaxassislari ishtirokidagi alifbo konferensiyasida yangi tuzilgan lotin grafikasidagi alifbo muhokamasi bo‘lib o‘tadi. Bu alifboda unlilarni 9 ta, undoshlarni 23 ta harf bilan ifodalashga qaror qilinadi. O‘sha yili tarixda birinchi marta lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini tuzish masalasi hal qilinadi va harflar tartibi belgilanib, ilk alifbo tuziladi. Shu yili o‘sha davr tilshunosligi darajasida “Imlo qoidalari” ishlab chiqiladi.

Bu imlo qoidalari haqida 1926-yili chop etilgan “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida shunday deyilgan: *“...imloda ikki usul qo‘llanadi: savtiy (fonetik) ham sarfiy (morfologik). Bizning tilimizda bir qancha shevalar bo‘lganidan ta’lim-tarbiya ishlarida yengillik uchun har ikki usuldan foydalanishga qaror berdik. So‘zning tomiri (asosi) eshitilgancha yozildi, qo‘shimchalar sarfiy usul bilan bitildi. Bularning haqida izohat va misollar quyida yozilgandir...”.* Mazkur qoidalarda ilmiy umumlashmalar juda oz bo‘lib, fe’llarning zamonlari, tuslanishi va imlosi berilgan.

Bu davr o‘zbek tilshunosligidagi muhim yangiliklardan biri Ashurali Zohiriyning bosh harflarni amaliyotga kiritishi va ularning ishlatilish o‘rinlarini qat’iy belgilab berishi bo‘ldi. Lotin grafikasi asosidagi o‘zbek alifbosi tartibga solinib, bu alifbo (alfavit) 1939-yilda yana tuzatildi va “O‘zbek tili grammatikasi” darsligida berildi.

Afsuski, lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosi ham jadidlarga qo‘shilib qatag‘on qilindi. Hatto bu yozuvda bitilgan asarlar o‘tda kuydirildi. 1940-yildan kirillchaga asoslangan o‘zbek alifbosiga majburan o‘tkazilganimiz ko‘pchilikka bugun ma’lum. Lotin alifbosi asosidagi o‘zbek alifbosiga uzil-kesil chek qo‘yish maqsadi ham sho‘rolar yuritgan siyosatning talabiga ko‘ra amalga oshirilgan edi.

XX asrning 20-yillaridan yangi o‘zbek alifbosini tuzish o‘zbek tilshunoslari oldida turgan asosiy muammolardan biri bo‘lib qoldi. Shu munosabat bilan Turkiston Maorif komissarligi huzuridagi Bilim kengashida o‘zbek tilining yangi alifbosini tuzishda qanday yo‘l tutilishi kerakligi muhokama qilinadi. Elbekning “Turk tillarining qonunlari to‘g‘risida mulohazalar” maqolasi ham shu munosabat bilan yozilgan bo‘lib, unda o‘zbekchani bilmasdan turib uning grammatikasini, imlosini tuzmoqchi bo‘lganlar tanqid qilinadi. Bu vazifani o‘zbek tilida so‘zlashuvchi, shu til ruhi bilan tanish kishilargina bajarishga loyiqligi aytiladi.

Yangi lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosida asarlar yuzaga kela boshladi. Bu borada Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Shokirjon Rahimiy, Elbek, Ashurali Zohiriyning xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz.

O‘zbek tilining imlo muammolari hal etilmagan bir davrda, jadid ma’rifatparvarlarining sa’y-harakatlari bilan lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosiga o‘tilishi, maktablarda shu alifbo asosida dunyoviy fanlarning o‘qitilishi davr uchun muhim ahamiyat kasb etardi. Jadidlar o‘zbek tili kelajagini rus yoki arab yozuvi emas, balki lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi asosida ko‘rishgan edi. Ayni imlo o‘zbek tili tabiatiga mos tushishi haqidagi asosli qarashlarini ilgari surib, yangi o‘zbek yozuvini qabul qilishda ham shu g‘oyaga amal qilishgan. Ma’rifatparvar bobolarimiz til va imloga bu qadar jiddiy e’tibor berganining boisi shuki, ular ayni milliy davlatchilik tayanchi sifatida alifbo masalasini birlamchi o‘rinlarda sanashardi.

Ixtiyor ERMATOV,
filologiya fanlari doktori

TOMOSHABIN TEATRGA NIMA UCHUN BORADI?

Boshlanishi 1-sahifada.

Tanlovlar, festivallar, ko‘riklar teatrlar faoliyatini jonlantirishi, aynan shular ijodiy jarayonni faollashtirishi mumkin, albatta. Shuning uchun ham keyingi vaqtda ko‘plab teatr festivallari tashkil etilmoqda.

Biroq aksariyat hollarda festivallar dasturidan anchayin bo‘sh, sayoz spektakllar joy olmoqda. Ular orasida teatr jarayonining yangi yo‘nalishini belgilab beruvchi ikki-uch spektakl topiladi, xolos. Fikrimizcha, festivallarni tashkil etish amaliyotini yanada jonlantirish lozim. Yaqin o‘tmishda sobiq “O‘zbekteatr” birlashmasi “Debyut” festivalini tashkil qilib, yosh rejissyorlarni kashf etish yo‘lini topgan edi. Bu mamlakat teatrlari hayotida muhim voqeaga aylangandi. Biroq unda g‘oliblarga qanday vakolatlar berilishi masalasi ochiq qolgan. To‘g‘ri, yosh rejissyorlarga turli teatrlarda ishlash uchun yo‘llanma berilardi. Lekin hammasi shu bilan yakunlanardi.

Bizningcha, yosh rejissyorlarga tanlash imkoniyatini berish zarur. Ularning ko‘pchiligida sahnalashtirmoqchi bo‘lgan spektakllarining loyihasi bor. Biroq kundalik yugur-yugurlar orasida ular nima qilishni, yordam so‘rab kimga murojaat etishni bilishmaydi. Yordam berishning esa iloji bor. Taklifimiz shuki, qirqqa yaqin teatr jamoalariga ega bo‘lgan Madaniyat vazirligida yosh rejissyorlarga ijodiy sharoit yaratish bilan muntazam shug‘ullanadigan tanlov ekspert komissiyasini tuzish kerak.





Yosh rejissyorlarning talabnomalari, loyihalarini uch-to‘rt kishidan iborat komissiya ko‘rib chiqib, sahnalashtirishga taklif berganidan so‘ng g‘oliblarning ijodiy ishi moliyalashtirilishi lozim. Shu tariqa davlat buyurtmasi haqidagi qarorni kutib o‘tirmay, yosh kuchlarni faollashtirish mumkin.

Ayni vaqtda yosh rejissyorlarning ishini tashkil qilish uchun malakali ustozlar rahbarligida yosh tanqidchilar, teatrshunoslar bilan birga seminarlar o‘tkazish darkor. Madaniyat vazirligi qoshida ijodiy seksiyalar tashkil etish va shu orqali kelgusida sahnalashtiriladigan spektakllar loyihasiga buyurtma berishda yoshlarga yordamlashish zarur. Shu ma’noda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining o‘quv markazi muntazam faoliyat yuritib turishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu markaz yosh rejissyorlar spektakl qo‘yadigan, yurtimizning boshqa hududlarida sahnalashtirilgan eng yaxshi sahna asarlari namoyish etiladigan tajriba markaziga aylanishi kerak. Shunday qilish lozimki, yoshlar nafaqat teatrimizga, balki yurtimizga kerakli ekanligini his qilishsin va tushunishsin.

Bugungi kunda homiylik institutlari shakllanmoqda. Bundan bir necha yil burun “Do‘stlar klubi” doirasida teatrlarga homiylar biriktirilishi amalda yaxshi natija berayotgan edi. Biroq keyingi paytlarda shu narsa ham susayib qoldi. Hozir teatr sohasida ijodiy jarayonni tashkil etishda, spektakllar topshirilishida homiylarning bevosita ishtiroki deyarli sezilmayotir. Xo‘sh, buning sababi nimada? Nima uchun poytaxt teatrlarining rahbarlari o‘z rejissyorlarining ijodiy faoliyatini ta’minlash uchun homiy qidirishmaydi? Nima uchun Milliy teatrning bosh rejissyori Asqar Xolmo‘minov chetdan ish qidirib, viloyat teatrlarida spektakllar sahnalashtirib yuribdi?! Vaholanki, uning o‘z teatridan chetda sahnalashtirayotgan spektakllari nufuzli xalqaro festivallarning mukofotiga sazovor bo‘lyapti. Nima uchun Asqar Xolmo‘minov o‘z ish joyida, yurtimizning asosiy teatrida ish bilan band emas? Bu rejissyorning faoliyati ro‘yxatida viloyat teatrlarida qo‘yilgan o‘nlab turli sahna asarlari bor. Uning amalga oshirilmay qolib ketayotgan loyihalari qancha? Bu loyihalar orasida Shekspir, Chexov asarlari, bir qator zamonaviy chet el mualliflarining dramalari bor. Shunisi achinarliki, vaqt nihoyatda tezkor, kutib turmaydi.

Shu yil bahorda Samarqand musiqali drama teatrida Asqar Xolmo‘minov Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” (Sh.Fayzullayev inssenirovkasi, sahna bezakchisi va liboslar bo‘yicha rassom M.Xoliqov, kompozitor A.O‘tagenov) dostoni motivlari asosida spektakl yaratdi. Ushbu asar Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan xalqaro festivalning mukofotiga sazovor bo‘ldi. Afsuski, mazkur spektakl Toshkentda namoyish etilmadi! Milliy an’ana deyarli hamma vaqt milliy shakl bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. “Layli va Majnun” spektaklining yaratuvchilari aynan shu bog‘lamni topganlar. Asqar Xolmo‘minov to‘liq romantik talqinga, metaforali obrazlilikka, tasavvufiy ramzga ega bo‘lgan ajoyib spektakl yaratgan. Postanovka aniq-ravshan rejissyorlik uslubiga yo‘g‘rilgan. Ya’ni rejissyorning maqsadi ilohiy, sof, g‘olib, lekin g‘ofillik, jaholat, shafqatsizlik qarshisida ojiz qolgan sevgining tug‘ilishini ko‘rsatish bo‘lgan. Muhimi, rejissyor asosiy maqsadni ochib berish yo‘lida bir jon-bir tan bo‘lib ishlagan ajoyib aktyorlar ansamblini tuzolgan.

Kezi kelganda, bir savolga javob izlashga to‘g‘ri keladi: nima uchun San’at va madaniyat institutining ko‘pchilik bitiruvchilari kino sanoatiga o‘tib ketishadi? Madaniyat vazirligi nima uchun bunday holatga e’tibor bermaydi? Ehtimol, yosh, tajribasiz rejissyorga spektaklni ishonib topshirish qaltis ish, deyishlari mumkin. Unda bu yosh rejissyor qayerda tajriba orttiradi? Faqat bir maqsad bilan – yaxshi, sifatli, badiiy jihatdan qiziqarli sahna asari yaratish uchun yosh ijodkorga yordam berish kerak. Bu borada Jizzax viloyati teatri rahbariyatining faoliyati namunali misol bo‘la oladi. Yosh bosh rejissyor Shohrux Yo‘ldoshev o‘z kasbini chuqur egallashi, mahoratini charxlashi uchun rahbariyat yordamini ayamay kelyapti. A.Chexovning “Oqqush qo‘shig‘i” bir aktli pyesasi asosida u yaratgan “Monolog” nomli spektakl favqulodda o‘ziga xos talqini bilan ajralib turadi. Barcha ko‘rinishlar sahnada yashashga o‘rgangan, rollardagi murakkab matnlarni bemalol yodlash qobiliyatini yo‘qotmagan insonning kayfiyati, hissiyoti va ehtiroslarini namoyon etishga yo‘naltirilgan. Aktyor Hamroz Mahmudov keksa aktyorning tarixini ishonarli talqin qilishga muvaffaq bo‘lgan. Spektakl musiqasi mashhur klassik ohanglar asosida tanlangan bo‘lib, asar mavzusiga hamohang tarzda ushalmagan orzular haqidagi sog‘inchni ifodalashga xizmat qilgan.

Teatr jonli san’at bo‘lgani uchun ham unda ijodiy yutuqlar va inqirozlar uchrab turishi tabiiy. Hammasi hayotdagidek. Ana shu hayotning davom etishi uchun hamkasblar va jamoatchilik astoydil yordam berishi, yoshi ulug‘ ijodkorlar yosh aktyorlar bilan tajriba almashishi, muhimi, yoshlarga ishonishi kerak. Xo‘sh bugun zamonaviylik va an’analar o‘rtasidagi aloqa qanday bo‘lishi lozim? Bunday muvozanatga erishish qiyin, ammo hal qilsa bo‘ladigan masala. Bahodir Yo‘ldoshev nomidagi “Diydor” teatr-studiyasi aynan shu masalani hal etish yo‘lida yaxshi izlanishlar olib boryapti.

Har doimgidek, teatr o‘zining navbatdagi mavsumini ulug‘ rejissyor tavallud topgan sana – 7-sentyabrda taniqli qirg‘iz dramaturgi M.Bayjiyevning “Duel” pyesasi motivlari asosida sahnalashtirilgan spektakl bilan ochdi. Teatr rahbari Bobur Yo‘ldoshev, taniqli rassom Bobur Ismoilov va iste’dodli kompozitor Dmitriy Yanovskiy hamkorligida sahnaga qo‘yilgan mazkur spektakl voqealari bosh qahramonning xotiralari asosiga qurilgan. Spektakl ijodkorlari yangicha kompyuter texnologiyalariga tayangan holda sahnada ishonarli jonli muhit yaratganlar. Tomoshabin ko‘z o‘ngida Issiqko‘lning shovqinli to‘lqinlari, uchayotgan turnalar, baliqchi qushlar jonlanadi. Bularning bari musiqa fonida xavotirli muhitdan, ayni paytda insonning lirika va og‘riqli sog‘inch bilan yo‘g‘rilgan baxtli bo‘lish haqidagi ushalmagan orzusidan hikoya qiladi.

So‘nggi yillarda teatrlarimiz amaliyotida chet mamlakatlardan rejissyor taklif qilish an’anasi paydo bo‘ldi. Bu juda yaxshi, albatta. Lekin, afsuski, taklif etilayotgan rejissyorlarning hammasi ham bizning mentalitetimizga xos bo‘lgan tafakkur, dunyoqarash, dunyoni tushunish kabi muhim xislatlarning fahmiga boravermaydi, tushunib yetmaydi. Sevgi, yaxshilik, axloqiy qadriyatlar haqida turlicha o‘ylash, ularni turli nuqta-i nazardan talqin qilish mumkin, biroq bir narsa – tomoshabin bularning barini qanday qabul qilishi alohida masala. Va buni unutish mumkin emas.

Odamlar teatrga nima uchun boradi? Hech kimni befarq qoldirmaydigan, murakkab, qarama-qarshiliklarga boy taqdirlar ko‘rsatiluvchi, insonning ichki olamini boyituvchi, uning axloq-odobini tarbiyalashga hissa qo‘shuvchi, o‘zi va olamni tushunishiga yordam beruvchi teatr deb atalmish dargohda xizmat qilayotgan har bir odam o‘ziga shu savolni berishi kerak. Va bu, fikrimcha, o‘zgarmas qoida bo‘lib qolishi shart.

Muhabbat TO‘LAXO‘JAYEVA,
san’atshunoslik fanlari doktori,
professor

TILBILIM

Qadimgi lug‘atlarni titib o‘tirib, bir narsaga ichim kuyadi. Ko‘pgina so‘zlarimiz “o‘lib ketgan”. To‘g‘ri, bugun shu so‘zlar o‘rnida ma’no tashuvchi so‘zlar bor. Lekin o‘sha qadimiy so‘zlar ham, hozirgi so‘zlar ham butun yursa, tilimizning boyligi ortardi. Bir ma’noni bir qancha so‘zlarda ifodalay olardik. Bu til uchun muhim. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tildagi shu boylik bilan faxrlangan va bu tilning kuchini shu bilan ko‘rsatgan.



UNUTILGAN SO‘ZLAR

Deylik, polizdagi qo‘rig‘ichni ko‘pchiligimiz *qo‘rig‘ich* ham demay, *chuchelo* deymiz. Mahmud Koshg‘ariyda ko‘z tegmasin uchun bog‘cha va polizlarga qo‘yilgan bunday qo‘riqchi *abaqi* deyilgan. “At-tuhfa” lug‘atida esa *shalu* deyilgan. Yana bu lug‘atda so‘lag‘ay – chapaqay, talvir – urg‘ochi kaklik, temän – juvoldiz, sag‘im – sarob, saqs – loydan yasalgan idish, chimdivuch – mo‘ychinak kabi talay g‘aroyib so‘zlar berilganki, ular saqlanishga arzigulik, yashashga haqli so‘zlardir. Hozir tilimizdagi qo‘riqchi so‘zining yonida abaqi va shalu so‘zlari turgani yaxshi emasmidi? Til ham ona. Onalar farzandlari bilan “O‘nta bo‘lsa, o‘rni, qirqta bo‘lsa qilig‘i boshqa”, deb quvonadilar.

Odam organizmidagi parazitlar ma’nosini ifoda qiladigan gijja so‘zini hammamiz bilamiz. Lekin tilimiz tarixida uning sinonimlari ham bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariyda sovushg‘an, “At-tuhfa”da qurvali so‘zi gijjani bildirgan. Yoki pivo – sira, gazak – sharaz so‘zi bilan ifodalangan. Tandirni o‘to‘rni, metallomni pas, taxta biti, klapani iyaz, pandemiyani o‘lat, chorvadagi o‘latni ham alohida nom bilan yut deyishgan. Bunday so‘zlarni juda ko‘p keltirish mumkin. Qarangki bugungi tilimizda metallomni ham, klapani ham ifodalaydigan yaxlit turkiy so‘zimiz yo‘q. Men bu yerda bir necha misollar bilan cheklandim, xolos. Holbuki, milliy tafakkur darajasi milliy tildagi so‘zlarning saqlanishi va himoyalanishi bilan ham belgilanadi.

Eshqobil SHUKUR

“YO‘QLAMA” yoki “BORLAMA”

Tilni ijodkor boyitadi: yangi so‘zlar yasaydi, eldan oladi, qadim so‘zlarni qayta qo‘llaydi, o‘liklarini tiriltirishga urinadi.

Yaqinda adabiy uchrashuvda kamtarin bir shoir “borlamoq” so‘zi besh asr naridagi mumtoz adabiy asarlarimiz tilida borligidan gapirib qoldi.

Biroz taajjublandim. Uyga kelib, “Izohli lug‘at”ni varaqladim. Haqiqatan, unda “bor” so‘zi bor, “borlik” bilan “borliq” ham bor. Ammo “borlamoq” va shu so‘zdan kelib chiqadigan “borlama”, “borlovchi” kabi o‘zakdoshlar yo‘q ekan. Lug‘at tuzuvchilarni ayblash niyatim yo‘q. Aslida o‘zbek tilining lug‘ati shu darajada boyki, gohida X–XV asrlardan o‘tib, bugun ham xalqimiz tilida doimo ishlatilib kelayotgan ba’zi so‘zlar shevashunos, lug‘atshunoslarning xotirasiga kelmas ekan. Inchunin, “borlamoq” so‘zi bizdagi, shuningdek, qo‘shni Respublikalarning ayrim qishloqlarida kunlik muomaladagi juda faol so‘z sanaladi.

O‘n yil maktabda o‘qiganmiz. Har kuni o‘qituvchi sinfga kirib, “borlama” qilar edi. Bu aynan “yo‘qlama”ga muqobil so‘zdir. Goho maktabimizga yuqori tashkilotlardan “borlovchi” kelar edi. Bu o‘rinda “yo‘qlovchi”ga “borlovchi” muqobil emas. Balki “tekshiruvchi”ga mos keladigan so‘zdir.

Birinchi sinf paytimiz kimningdir ruchka yo qalami yo‘qolib qolsa, bolalik-da, sinf rahbarimiz Ermetov darrov Qizlargulning sumkasi-yu cho‘ntaklarini borlatar (tekshirtirar, izlatar), buyruq ohangida “Daruma, borlab ko‘ringlar!” der edi.

Adabiy tilimizda: “Sizni yo‘qlab kelgan edim, jo‘ra”, deyiladi. Ammo bu o‘rinda “yo‘qlab” o‘rniga “borlab”ni qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki “yo‘qlab”da muloyimlik, yaqinlik, ko‘ngil so‘rashga o‘xshash ma’nolar, “borlab”da esa keskinlik, tekshiruvchilik va begonalik ma’nosi bor.

Odatda qaynona kelinni tergab, ishlarini tekshirib yuradi. Bundan og‘ringan kelinlar qaynonalarini “borlovchi, ana borlab yuribdi...”, deydi ichida.

Umuman, so‘zda gap ko‘p. Tilimiz uchun “yo‘qlamoq” naqadar muhim bo‘lsa, “borlamoq” ham shu qadar ahamiyatlidir. Albatta, ijod va ilm ahli bunday so‘zlarning “fuqarolik huquqlari”-ning poymol bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Bahodir NURMUHAMMAD

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo
Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov
Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova
Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 812
Lotin yozuvidagi adadi – 11 905
Media kuzatuvchilar – 19 311
Buyurtma: G – 1040.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30
Sotuvda narxi erkin.